

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

Egamov Temur Muzaffarovich

5230100-“Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)” ta’lim yo’nalishi bo’yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat dasturlarini
amalga oshirish yo’llari

Ish ko’rib chiqildi va
himoyaga qo’yildi.

“Iqtisodiyot”

kafedrasi mudiri,

dots. Matyakubov U.R.

“ ” 2016 y.

Ilmiy rahbar

A. Bar o’q.Rajbov A.X.

Ilmiy maslahatchi

B.N dots.Egamov B.N

Urganch 2016 yil

MUNDARIJA

Kirish

I-Bob. Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari

- 1.1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirishning ilmiy-uslubiy jihatlari
- 1.2. Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillari
- 1.3. Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati ko'rsatkichlari

II-Bob. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining hozirgi holati va tahlili

- 2.1. Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish holati va sohani rivojlantirish bo'yicha davlat dasturining bajarilishi
- 2.2. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda 2013 – 2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturining ahamiyati
- 2.3. Mintaqaning aholi turmush farovonligini oshirish uchun qaratilgan davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlili

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishga, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgandir. Shubhasiz, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida uning mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yuqoriligi alohida o'rin tutadi. Shu bois, respublikamiz hukumati tomonidan keyingi yillarda mamlakat mintaqalarini hamda iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror va mutanosib rivojlantirish bo'yicha bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Davlat Dasturlari qabul qilinib amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari, muhtaram Prezidentimiz I.Karimov bu haqda to'xtalgan holda "Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur.

Ayni shunday yangicha qarash va harakatlar butun faoliyatimizning negizini tashkil etishi shart.

Shu borada ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xomashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak¹".

Shu bois, mintaqaviy rivojlanishning xususiyatlarini aniqlash, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholash va takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

¹ "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2016-yil 16- yanvar, 3-bet

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi N.P.Vastenin, V.Los, A.D.Ursulya, N.T.Agafolova, R.A.Islyayev, V.A.Konyugo, V.K.Levashevo, B.M.Matrosova, B.B.Poshevo, B.S. Bolshanovo, A.S.Sheulin va boshqalarning ishlarida qarab chiqiladi.

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning turli jihatlarini tadqiq etish va ularning barqaror rivojlantirish modeliga o'tkazish masalalariga I.Ya.Blexstin, A.G.Granberg, M.G.Ganopolsiy, B.M.Gringel, M.A.Gusanov, V.A.II'in, O.V.Kololiychenko, S.V.Kuznekov, V.K.Lalnenstev, V.K.Leksin, V.V.Okrepilov, O.P.Pgelinsteva, V.E.Poxchin, A.A. Rumyanstev, V.S. Selin, A.I.Tatayanin, A.N.Shvetsov, A.N.Shilkin va boshqalarning ilmiy asarlarida alohida e'tibor qaratiladi.

Mikro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi muammolari, hamda alohida quyi tizimlarning masalalari T.M. Kononlyanin, E.V. Mamarov va boshqalarning asarlarida aks ettiriladi.

Respublikamizda tadqiqot mavzusiga bevosita bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni S.S.G'ulomov, M.A.Abdusalyamov, N.T.Tuxliyev, T.M.Axmedov, A.V.Vaxobov, A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, T.Egamberdiyev va boshqalar olib borishgan.

Xorazm viloyatini hududlarini barqaror va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlari joylashuvi masalalari B.Ruzmetov, T.Do'stjanov, A.Sadullayev, S.Salaev, O.Abdullayev, Y.Dodoboyev, A.G'afforov, A.G'ofurov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat dasturlarining rolini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olingan:

- mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirishning ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;

- barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli masalalarini tadqiq qilish;

- Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan 4 ta Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilgan ishlarni taxlil qilish;

- mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

- Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish holati va sohani ustuvor rivojlantirish bo'yicha davlat dasturining bajarilisini tadqiq qilish;

- 2013 – 2015 yillarda Xorazm viloyatida xizmatlat va turizm sohasini rivojlantirish dasturi imkoniyatlarini asoslash;

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekiston mintaqalari va xususan, Xorazm viloyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti sifatida respublikamizni, xususan Xorazm viloyatini davlat dasturlari asosida rivojlantirish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida qiyosiy-tadrijiy tahlil, statistik-matematik, statistik guruxlash, reytinglash, indeks va kartografik, tarixiy taqqoslash va boshqa usullardan xam foydalanildi

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Bitiruv malakaviy ishi Urganch davlat universitetining Iqtisodiyot kafedrasida mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida bajarildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi, kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar shaklida bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslari yoritib berilgan. Ikkinchi bobda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining hozirgi holati tahlili keltirilgan.

I-BOB. MINTAQANI BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Ijtimoiy – iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirishning ilmiy-uslubiy jihatlar

Jamiyat tarixiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga globallashuv va dinamizm xos bo'lib, ular bir tomondan iqtisodiy o'sishning sur'atlarini o'sishiga turtki bergan xolda yer kurrasining tobora oshib borayotgan aholisi sonini cheksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlashga yordam beradi, boshqa tomondan esa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni boshqarishni sezilarlicha murakkablashtiruvchi, beqarorlashtiruvchi omil sifatida rivojlanishni noaniq va beqaror qilib qo'yadi. Globallashuvning ta'sirini kuzatib borishi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini barqaror rivojlanishi modeli o'tish muammosini keskin qilib qo'yadi va bu esa nafaqat milliy balki xorijiy olimlarda ham mazkur muammoga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Jahon tizimining barqaror rivojlanuvchi muammolari X. Bossey, V. Bernayaskiy, V.I. Danilovo-Ramil'yak, O.K.Dreyer, D.Medouz, N.N.Monseev, V.V.Novonilovo, J. Forrester va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi N.P.Vastenin, V.Los, A.D.Ursulya, N.T.Agafolova, R.A.Islyayev, V.A.Konyugo, V.K.Levashevo, B.M.Matrosova, B.B.Poshevo, B.S. Bolshanovo, A.S.Sheulin va boshqalarning ishlarida qarab chiqiladi.

Mintaqaviy ijtimoiy- iqtisodiy tizimlarning turli jihatlarini tadqiq etish va ularning barqaror rivojlantirish modeliga o'tkazish masalalariga I.Ya.Blexstin, A.G.Granberg, M.G.Ganopol'siy, B.M.Gringel, M.A.Gusanov, V.A.II'in, O.V.Kololiychenko, S.V.Kuznekov, V.K.Lalnestev, V.K.Leksin, V.V.Okrepilov, O.P.Pgelisteva, V.E.Poxchin, A.A. Rumyanstev, V.S. Selin, A.I.Tatayanin, A.N.Shvetsov, A.N.Shilkin va boshqalarning ilmiy asarlarida alohida e'tibor qaratiladi.

Mikro darajada ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi muammolari, hamda alohida quyi tizimlarning masalalari T.M. Kononlyanin, E.V. Mamarov va boshqalarning asarlarida aks ettiriladi.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirish nazariyasi shakllanishi bosqichida sanaladi. Shu paytgacha o'z yechimini topmagan munozarali masalalar juda ko'p. Ilmiy jamoatchilikni avvalo bir savol qiynaydi, ya'ni dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqarorligi to'g'risida so'z yuritish mumkinmi o'zi, holbulki falsafiy nuqtai nazardan qaraganda barqarorlik doimiy bir holatda ko'p vaqt bo'lishini anglatadi, aksincha bo'lsa esa o'zgaruvchanlikni bildiradi. Bir qator ilmiy ishlarda "barqarorlik", "barqaror rivojlanish" va "barqaror o'sish" tushunchlari o'rtasidagi o'zaro nisbat qanday degan savolga javob yo'q. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi bo'yicha olimlar hamon yagona bir xulosaga kelishganlari yo'q, zamonaviy fanda mazkur kategoriyaga umumqabul qilingan ta'rif ishlab chiqilgani yo'q. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi va ularni baholash mezonlari aniqlanadi, mintaqaviy darajada tizimlarning barqarorligi xususiyatlari aniqlanmadi. Boshqaruvchining barcha ierarxik darajalaridagi hatti-harakatlarni ilmiy asoslamasdan turib ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muammosini hal qilib bo'lmaydi.

Qo'yilgan masalalarning dolzarbligi avvalo barqarorlikning nazariy asoslarini qarab chiqishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, barqarorlik atamasini aniqlashning turli xil qarashlarini bartaraf etish, ushbu tushunchani mazmun mohiyatini yanada barqarorlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirish nazariyasini kelgusida shakllantirishni ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, barqarorlik nazariyasi uzoq tarixga ega dastlab bu nazariya boshqa bilim tarmoqlari va ilmiy fanlar kesimida paydo bo'lgan, matematika, kibernetika, tizimlar nazariyasi va boshqalar. Uning asosi falsafachilar, matematiklar, fiziklar, biologlar tomonidan yaratilgan. Ular tomonidan

1.1.1–jadvalda keltirilgan "Barqarorlik" tushunchasiga turli metodologik yondashuvlar asoslangan. Tadqiqot ob'yekti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini qarar ekanmiz tadqiqot metodologiyasi, uning mohiyati va xususiyatini aniqlab olish zarur.

Tadqiqot predmeti sifatida tizim maydonga chiqarilayotganligini inobatga olib, tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuvga asoslanishi kerak, ya'ni bunda

tizim bir-biri bilan o'zaro bog'liq va muayyan yaxlitligini hosil qiluvchi unsurlar to'plamidan tashkil topadi.

1.1.1-Jadval.

“ Barqarorlik” tushunchasiga metodologik yondoshuvlarning tavsiflari²

Metodologik yondashuv	Barqarorlik turi	Namoyondalari
Mexanik	Harakat barqarorligi	L.S.Laplas, J.Lagrang, A.Luankares, A.M.Lyapunov
Falsafiy	Shakl barqarorligi	G.Gegel, A. Bogdanov, F.Shelling, E.Yang
Tizimli	Tizim barqarorligi	R.Akkof, A.Fon Bertalanfi, E.Maslo, Y.Urmantsev
Biologik	Tizim barqarorligi	R.Yum , T.Mal'tus, G.Spenser
Kibernetik	Tizim barqarorligi	N.Viner, U.Embi, V.M.Glushkov
Iqtisodiy	Muvozanat barqarorligi	L. Valvras, A. Marshal, J.Xins, P, Samuel'son, K. errou, F.Xan, V.V.Leont'ev, K.Lannaster

Ijtimoiy – iqtisodiy tizimlarning barqarorligining mavjud ta'riflarining tanqidiy tahlil qilish ko'rsatishicha, zamonaviy fanlar uchun qabul qilingan tushuncha ishlab chiqilmagan. Har ehtimolga qarshi, 3 ta bir – biridan farqli yondoshuvni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yondoshuv tarafdorlari ijtimoiy – iqtisodiy barqarorlikni xavfsizlik, barqarorlik, ishonchlilik, turg'unlik va tizim mustahkamligi bilan bog'laydilar (1.1.2-jadval).

1.1.2 – jadval

Ijtimoiy – iqtisodiy tizim barqarorligi ta'riflarini umumlashtirish

Ta'rif	Muallif
Barqarorlik xavfsizlik, turg'unlik, ishonchlilik, yaxlitlik va tizim mustahkamligi sifatida	
Milliy iqtisodiyot barqarorligi uning xavfsizligi, turg'unligi, doimiy yangilanishi va o'z –o'zini takomillashtirish qobiliyati bilan aniqlanadi.	L.I.Abalnin
Barqarorlik mamlakat yaxlitligining kafolati sifatida maydonga chiqadi va bevosita davlatning shu tizimi ishonchliligi bilan chambarchas bog'liq.	A.Livshits

² Ускова, Т.В. Управление устойчивым развитием региона[Текст]: монография / Т.В. Ускова. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2009. – 355 с.

Barqarorlik deganda iqtisodiy, ekologik yoki boshqa tizimning u yoki bu unsurlarning shunday holatiki, bunda ularning boshlang'ich holatini yuqori ishonchlilik darajasi bilan ularning kelgusi holatini aniqlaydi.	A.P.Bobrov
Xo'jalik tizimi barqarorligi umumiy ma'noda mazkur tizimning rivojlanish vektoriga uzoq muddatga tashqi muhit o'zgarishlari sifatida o'z yaxlitligi va barqarorligini saqlash xossasidir.	T.M.Kononlyan
Mamlakat milliy xo'jaligi barqarorligi yagona tizim sifatida ichki va tashqi yuklamalarga chidam beruvchi, uning barcha unsurlari mustahkamligi va ishonchliligi, ular o'rtasidagi iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni barqarorligini bildiradi.	D.V.Gordnenko
Barqarorlik tizimining nisbiy o'zgarimasligi sifatida	
Iqtisodiy barqarorlik- unga ichki va tashqi ta'sirlarning ko'rsatilishi jarayonida tizimning dastlabki holatini saqlab qolish yoki uni tiklash qobiliyatidir.	A.G. Shelomentsev V.D.Klashnikov
Barqarorlik –iqtisodiy tizimning asosiy dinamik tavsiflaridan biri bo'lib, u tizimni muvozanat holatiga u yoki bu ichki va tashqi ta'sirdan keyin qayta olish xususiyatini anglatadi.	S.M. Ilyasov
Iqtisodiy barqarorlik tizimining doimiy, mustahkam xayoti bo'lib o'z-o'zini tartibga solish va rivojlantirishning amaldagi mexanizmlari bilan ta'minlanadi	T.G.Krasnova
Hududiy tizimlarning barqarorligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning asosiy ko'rsatkichlarini o'zgarimasligi, uni ichki va tashqi chetlanishlar ta'sirida belgilangan chegaralar doirasida nisbiy o'zgarimasdan qolishini anglatadi.	A.L.Gaponenko
Tizim barqarorligi - ichki va tashqi ta'sirlarga qaramasdan muayyan davr mobaynida nisbatan o'zgarimasdan qolish qobiliyatidir.	N.F.Rellers
Barqarorlik- istalgan kichik siljinishlardan keyin tizimning muvozanat holatiga qaytishining zaruriy shartidir.	M.Blaug
Barqarorlik- tashqaridan ta'sir ko'rsatilgandan keyin tizimni dastlabki holatiga qaytish qobiliyatidir.	O.B.Kolomiychenko B.E.Roxchin
Barqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimning dinamik muvozanatini saqlash qobiliyati sifatida	
Barqarorlik ichki va tashqi muhit parametrlashtirish kerak bo'lgan chegaralarada o'zgarganda tizimni dinamik muvozanatini saqlashning integratsiyalashgan xossasidir.	N.B.Chaykovskaya
Mintaqa xo'jalik tizimining iqtisodiy barqarorligi dinamik muvozanatni saqlashning integratsiyalashgan xossasidir.	V.A.Kretin E.S.Badryashov
Barqarorlik tizimni rivojlantirish qobiliyati sifatida	
Ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqarorligi-o'z rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslardan unumli foydalanish, muqobil ravishda ularning shaklini o'zgartirish, ularni ijobiy o'zgarish ko'rsatkichlarini qayta tiklanmaydigan resurslarni, bazaviy xarajatlarni minimallashtirgan holda uzluksiz ravishda oshirib borish qobiliyati	B.K.Esenina Sh.Sanargali
Iqtisodiy tizim barqarorligi deganda (shu jumladan mintaqaviy ham) rivojlanishning dastlabki holatiga nisbatan tez qaytishi yoki yangi rivojlanishining yanada yuqori nuqtasiga erishish qobiliyatidir.	M.Y.Kalilnikov
Barqarorlik- tizim muvozanat holatiga yaqin holatlarda tashqi va ichki ta'sirlar bo'lganda ham faoliyat ko'rsatish qobiliyatidir.	L.L.Terexov
Barqarorlik muayyan faoliyat rejimida tizimni o'zgarimasdan faoliyat ko'rsatish qobiliyatidir.	A.I.Drujinin O.N.Dunaev
Mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligi- tashqi va ichki chetlashuvchi omillar	A.M.Ozinya

ta'sirlari sharoitida maqsadga muvofiq sifat va samarali natijalarni ta'minlovchi rivojlanish faoliyatini o'zgarishsiz bajara olish qobiliyatidir.	
Tizim barqarorligi-dinamik tizimni unga ta'sir etuvchi omillarga qaramasdan, belgilangan tryektoriya bo'yicha harakatini saqlay olish qobiliyatidir.	Ya.Korian
Iqtisodiy tizim barqarorligi – jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, va ekologik muammolarni kompleks yechish imkonini beruvchi iqtisodiy tizimni uzoq muddatga rivojlanishini ta'minlovchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir.	E.V. Maka

Shu bilan birga bular nafaqat mezon va atributlar, tizim barqarorlik shartlari hamdir. Holbuki, ishonchlilik va mustaqillik – texnik ob'yektlar va tizimlarning xossalari

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari barqarorlikni ijtimoiy-iqtisodiy tizim asosiy parametrlarini muayyan vaqt orasida o'zgarmay qolish nisbiy o'zgarmasligi sifatida talqin etiladi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy tizim muallif fikricha o'z-o'zini o'zgartiruvchi, talqin etuvchi tizim sanaladi va uning sababi tizimning ichida yotadi.

V.D.Magilevskiy ko'rsatishicha, tizimlar shunday tashkil etilganki, u o'zini yashab qolish, barqarorligi va bir vaqtning o'zida rivojlanish, revolutsiya va maqsadga yaqinlashishni o'zi ta'minlaydi. Bu ikkiyoqlamalik tizimning ziddiyatlaridan biri bo'lib, u tizimning rivojlanishi orqali hal bo'ladi. Natijada, tizimni rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi jarayonida tizim parametrlari o'zgarishsiz qolishi mumkin emas, ular doimiy ravishda o'zgaradi.³

Uchinchi yondashuv tarafdorlari esa barqarorlik deganda ijtimoiy iqtisodiy tizimning dinamik muvozanatini saqlashni tushunishadi. ⁴muallif fikricha barqarorlik – bu tizimning ichki va tashqi muhit parametrlarini mumkin bo'lgan chegaralarida o'zgarishida dinamik muvozanatni saqlovchi integratsiyalashga

³ Могилевский, В.Д. Методология систем: вербальный подход [Текст] / В.Д. Могилевский. – М.: Экономика, 1999. – 248 с.

⁴ Чайковская, Н.В. Проблемы экономической устойчивости хозяйственной системы региона [Текст] / Н.В. Чайковская // Региональная экономика: теория и практика. – 2005. – № 6. – С. 33-35.

xossasidir.⁵ Boshqa tadqiqot, mintaqa xo'jalik tizimining iqtisodiy barqarorligi kategoriyasini huddi yuqoridagi ta'rifdagiday tushunishadi.


Ijtimoiy – iqtisodiy tizimning murakkabligi, o'z tarkibida katta sondagi elemenlarning mavjudligi va o'z navbatida ularning ham tizim ekanligi⁶ muallifga ijtimoiy – iqtisodiy tizimlarga barqarorligini quyidagicha tasniflanishiga imkon beradi (1.1.1- chizma).

Barqarorlikning shunday ko'p sondagi xilma – xil ko'rinishining mavjudligi o'rganilayotgan kategoriyaning turliligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan barcha tasniflar bir – birini to'ldiradi, bu esa u yoki bu tasniflarni muayyan belgilari bo'yicha farqlanishini bildiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, rivojlanishga moyillik, qobiliyat – tizimning xususiyatlaridan biri sanaladi. Tizim rivojlanishi – odatda miqdoriy o'zgarishlar bilan kuzatiluvchi muqarrar sifat o'zgarishlaridir.

1.1.1-chizma.

Ijtimoiy – iqtisodiy tizimlar barqarorligi turlari tasnifi⁷.



⁵ Кретинин, В.А. Теоретические аспекты устойчивого развития региона и критерии его оценки [Электронный ресурс] / В.А. Кретинин, Е.С. Бордяшов // Экономика региона. – 2007. – № 18 (дек.). – Режим доступа: <http://journal.vlsu.ru/index.php?id=16>

⁶ Концепция долгосрочного социально-экономического развития Российской Федерации до 2020 года [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.government.ru/content/governmentactivity/rfgovernmentdecisions/archive/2

⁷ Ускова, Т.В. Управление устойчивым развитием региона [Текст]: монография / Т.В. Ускова. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2009. – 355 с.

Tizim rivojlanishi davomida uning unsurlari o'rtasidagi nisbatlar o'zgaradi, muayyan aloqalar kuchaysa ayrimlari zaiflashadi. Holbuki, rivojlanish barqaror va beqaror bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqaror rivojlanish tavsiflaridan biri uning dinamikligi bo'lsa, boshqa tomondan uning xususiyatlarining nisbat o'zgarimasligidir, Shuning uchun, barqaror rivojlanish odatda uning xossalarini, xususiyatlarini o'zgartirmagan holda sifat o'zgarishlarini nazarda tutadi. Bunday hisoblarga muallif⁸ quyidagilarni tegishlilikini o'rinli deb hisoblaydi:

- Tizimni o'z o'zini rivojlanishi va tartibga solish qobiliyati;
- Tizim yaxlitligini ta'minlovchi barcha quyi tizimlarni o'zaro ta'siri, aloqasi mavjudligi;
- Muvozanat holatini saqlay bilish qobiliyati (turli tomonlarga yo'naltirilgan kuchlarning o'zaro ta'siri, bir- birini o'zaro to'ldirish);
- Barqarorlashtiruvchi omillarga qarshi tura olish qobiliyati.

Bu xossalarni tizimning yaxlitligini, uning dinamik barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur xossalarni mavjudlik mezonini tizimni rivojlanish uchun zarur resurslarning mavjudligi, takror ishlab chiqarishning oddiy yoki kengaytirilgan turi, barcha quyi tizimlarni barqaror rivojlanish va barcha tashqi ta'sirlarga moslashuvchanlik mexanizmlarining mavjudligidir.

Barqaror rivojlanish tizimdagi sifat o'zgarishlari bilan kuzatiladi va bunda uning xossalari yomonlashib, tizim yaxlitligini yo'qotishgacha borish mumkin.

Ijtimoiy – iqtisodiy tizim o'z evolutsiyasi jarayonida esa mayyan hayotiy siklni bosib o'tadi va to'liqsimon harakterga ega. Evolutsiyaning magistrali beqaror muvozanatdan beqaror muvozanatga tomon harakatlanuvchi jadallashuvchi to'liqsimon dinamik jarayonidir.

Tizimli nuqtai nazardan barqaror rivojlanish jadal o'sayotgan ichki tizim o'zgarishlarini tartibga soluvchi uni tashkil etuvchi omili bilan bog'liq rivojlanayotgan tizim inqiroz holatini paydo bo'lganida barqaror bo'la boshlaydi,

⁸ Гершанок, Г.А. Формирование системы устойчивого развития локаль-ных территорий на основе оценки социально-экономической и экологической емкости [Текст] / Г.А. Гершанок. – М.: Экономика, 2006. – 418 с

bu esa turli buzilishlar yoki yangi sifatii holatiga o'tish bilan bevosita bog'liq. Shunday qilib quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

birinchidan tizim barqarorligi uning barqaror rivojlanishining asosii zarurii sharti ;

ikkinchidan, barqarorlikni yo'qotish tizmini buzilishiga va uni yashab qolishiga olib keladi.

1.2. Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodii rivojlanishi omillari

Ma'lumki, barqaror rivojlanishni ta'minlash muammosii ijtimoiy rivojlanish ma'lum darajada globalizatsiia jarayonlariga bog'liq bo'lganligi uchun XXI asrda juda dolzarb muammolardan sanaladi. Vaxolanki, globallashuvning ayrim jihatlari va qirralari insoniiyat tarixining barcha bosqichlarida maqsad bo'lgan bo'lsada, ushbu qonuniiyatni anglash keyingi ming yillikda real liniia aylandi, ya'ni mualliflar fikricha ijtimoiy barqarorlikning⁹ milliydavlatchilik shakllaridan global demokratik fuqorolik jamiyatga o'tish tendensiiyasi aynan shu davrga kelib yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Barqaror rivojlanish haqidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi bir qator yondashuvlarni yuzaga chiqaradi. Ulardan eng asosiiylari quyidagilardir¹⁰:

1. Ijtimoiy – iqtisodii yondashuvlar: “Istemolchi falsafasi”ning hukmronligi. Ko'p asrlar davomida insoniiyat rivojlanishning “resurslarga asoslangan” yo'lidan bordi, ya'ni “gullab yashnash uchun iste'mol qilish” , “biosfera inson uchun”, “inson tabiiatning podshosi”. Buning natijasida resurs salohiiyati kamayib, atrof-muhit degradatsiiyasi va global ekologik muammolar o'sishi kuzatildi.

Resurslarni buzuvchi texnologiiyalarning hukmronligi. Past samarali texnologiiyalarning yuqori raqobatbardoshligi iqtisodii naf ustuvorligi va resurs salohiiyati tugamasligi hayotiiy tasavvurlari bilan aniqlandi. Tabiiy resurslarini bahosini ularning haqiqiiy qiymati bo'yicha shakllantirish mexanizmining

⁹ Урсул, А.Д. Глобализация, устойчивое развитие и безопасность: системно-синергетический подход [Электронный ресурс] / А.Д. Урсул, А.Л. Ро-манович.–Режим доступа: http://www.portalus.ru/modules/philosophy_rus_readme.php?subaction=showfull&id=1107181273&archive=1208465572&start_from=&ucat=1&

¹⁰ Розенберг, Г.С. Мифы и реальность «устойчивого развития» [Текст] / Г.С. Розенберг, С.А. Черникова, Г.П. Краснощеков, Ю.М. Крылов, Д.Б. Гелаш-вили // Проблемы прогнозирования. – 2000. – № 2. – С. 130-154.

noadekvatligi, hamda resurslarni qayta tiklanishi yoki tiklanmasligiga qarab resurslarining bahosining dinamikasi o'zgartirish mexanizmining takomillashmaganligi. Bahoni shakllantirish tizimning kamchiliklariga xo'jalik faoliyati jarayonida buzilmasdan qolgan hududlaridan to'lovlarning yo'qligi va "noresurs" tabiiy qiymatliklarning qadsizlanishi.

- "Shimol janub" muammosi. Uning mohiyati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zaro munosabatlari xususiyatlari bilan ifodalanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xomashyo bahosi va ishchi kuchi qiymatining nisbatan past darajasi, bir tomondan boshqa tomondan esa rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologik va sanoat salohiyati shimol janub muammosini paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Buning natijasi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi nomutanosibliklarda namoyon bo'ladi. .

2. Ekologik yondashuvlar: Atrof muhitning ifloslanishi, yangi texnogen geyokimyoviy zonalarining shakllanishi, ham mahalliy ham global miqyosda biyokimyoviy sikllarning buzilishi;

Yer landshaftining qatlami butunligining texnogen buzilishi; cho'llashuv botqoqlashuv

Tirik organizmlar dunyosi tur xilma xilligining kamayishi;

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik suvi sifati muammosi;

Oziq –ovqat mahsulotlari, yer usti va osti suvlarida zararli, iflos moddalarning to'planishi;

Ekologik patologiyaning paydo bo'lishi: kasalliklar, genetik cheklanishlar, umr davomiyligining dunyo qarashi

Barqaror rivojlanish nazriyasining ilmiy asoslari V.U.Vernadskiyning biosferoni rivojlanishi haqidagi asarlarida keltirilgan bo'lib¹¹, inson faoliyatining yer kurrasi miqyosidagi jihatlarini qarab chiqish zarurligini va uning faoliyat ko'rsatish usulini o'zining zarurligini tan olishga olib keladi. V.I.Vernadskiyning xizmatlari shundaki, u tahlilga "inson-tabiati" tizimi aloqalarini kiritdi va uning

¹¹ Вернадский, В.И. Научная мысль как планетарное явление [Текст] / В.И. Вернадский. – М.: Наука, 1991. – 270 с

markazida insoniyat o'zining aniq amaliy moddiy ehtiyojlari va hozirgi hamda kelgusi avlodlar yashashi uchun ma'rifatli, "insoniyatni bir butun tizim sifatida" yangi o'lchov mezonlarining vujudga kelishi, ijtimoiy tahlilini global maydonga olib chiqdi.¹² Olimning ilmiy qarashlari tizim mohiyatiga ko'ra, global muammolarini keng jamoatchilik anglashiga imkon beradi.

"Barqaror rivojlanish" tushunchasining zamonaviy tahliliga insonning tabiat bilan munosabatlari ya'ni jihatlarini qidirish uchun dunyo ijtimoiy fikrlarining rag'batlantiruvchi Ran klubining ma'ruzasi xizmat qildi. 1962-yilda BMT bosh assambleyasining "Iqtisodiy rivojlanishi va tabiati" muhokama qilish nomli rezolyutsiyasi qabul qilindi. 1972-yilda esa BMT ning atrof muhit bo'yicha dasturini amalga oshirish uchun tashkilot tuzildi. 1987-yilda atrof muhitni muhofaza qilish va rivojlantirish butun jahon komissiyasining "Bizning uslubiy istiqbolimiz" deb nomlangan ma'ruzasida, insoniyatning ishbilarmonlik faolligini va turmush tarzini o'zgartirish zarurligi ko'rsatib o'tishdi. Shuningdek, ma'ruzada iqtisodiyotni qonuniy ehtiyojlari va xohishlarini qondirishga yo'naltirish

Mohiyatiga ko'ra, komissiya "atrof-muhit uchun havfsiz iqtisodiy rivojlanish yangi davriga" chaqirdi. "Sustainable development" so'z birikmasi ma'ruza e'lon qilingandan keyin "barqaror rivojlanish" deb tarjima qilindi va jahon hamjamiyati diqqat markazida bo'ldi.

1980-yillar boshlarida "barqarorlik" atamasi atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ittifoq (internatsional union conservation of nature) tatqiqotlaridayam paydo bo'ldi va ekologik tizim tomonidan tashqi omillar ta'sirlarida o'zining tarkibi va funksional xossalarini saqlab qolish qobiliyati sifatida ishlatildi.

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Butunjahon strategiyasida yozilgan ta'rif barqaror rivojlanishiga tarifiga berilgan ilk real urinishlardan bo'ldi: "Rivojlanish barqaror bo'lishi uchun, ijtimoiy va iqtisodiy omillar kabi iqtisodiy omillarni, tirik va notirik resurslarni, muqobil harakatlarning ham uzoq, ham qisqa muddatli

¹² Яншина, Ф.Т. Эволюция взглядов В.И. Вернадского на биосферу и раз-витие учения о ноосфере [Текст] / Ф.Т. Яншина. – М.: Наука, 1996. – 222 с.

istiqbollari inobatga olish kerak". Biroq mazkur tarifda umumiy barqaror rivojlanishga emas, balki ekologik barqarorlikga urg'u beriladi.

BMT atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha komissiyasining xulosalari 1992-yilda Rio-de-janeyroda BMT atrof muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi doirasida qabul qilingan insoniyat taraqqiy qilishi uchun barqaror rivojlanish trayektoriyasiga chiqib olishi zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishga asos bo'ldi. Barqaror rivojlanish deganda kelgusi avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun xavf tug'dirmagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan rivojlanishdir.

Barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar ta'kidlandi:

- turmush, hayot sifatini yaxshilash
- insonlarning kafolatlangan salomatligi;
- aholining kelajak avlodlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish;
- kambag'allikga qarshi kurash;
- ishlab chiqarish va iste'molning ratsional tarkibi;
- tabiatdan tejamkorona foydalanish;
- ekotizimlarni saqlash iqlim va azon qatlamini himoya qilish;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- sektorlararo hamkorlik;
- ekologik ong ekologik axloq;
- fuqaroliq jamiyatini shakllantirish;
- insoniyat va tabiatning ustidan har qanday zo'ravonliklarning barcha shakllarini bartaraf etish (urushlardan ogohlantirish, terorizm va ekotsid va hokazo) global sherikchilik.

Bunday tamoyillar majmuyida ijtimoiy – iqtisodiy tizim tabiatni asrovchi tizim sifatida maydonga chiqadi va ekologik iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni bir butun qilib birlashtiradi.

O'tgan asrning 80-yillari oxiridan boshlab barqaror rivojlanish nazariyasi va amaliyoti nafaqat omillar, balki butun dunyo siyosatchilik diqqat markazida turibdi.

Akademik N.N.Moiseev birinchi bo'lib , mazkur murakkab muammoning barcha qirralari bilan batafsil tafsiflashga urindi.¹³ Dunyo hamjamiyati tomonidan jipslashib kelayotgan havflarni tushunmaslikni qattiq tanqid ostiga olgan holda , N.N.Moiseev barqaror rivojlanish deganda insoniyat taraqqiyot etishi uchun qulay shart – sharoitlarini yaratish, uning nimalarni saqlab qolish uchun jamiyatning rivojlanishini ta'kidlaydi. Holbuki, insoniyatning ekologik bo'shlig'i esa biosfera hisoblanadi. “Barqaror taraqqiyot” tushunchasini u inson va biosferaning muvofiqlashtirilgan hamkorlikdagi evolutsiyasi kabi talqin qildi. Barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish – noosfera davriga birinchi qadam sifatida olim jamoaviy aql va jamoaviy erkinlikning eng yuqori, oily darajaga yetib, tabiat va jamiyatning hamkorligidagi uyg'un rivojlanishini ta'minlashini tushunadi.¹⁴

R.M.Nureev¹⁵ barqaror rivojlanishni ishlab chiqaruvchi kuchlarini uyg'unlashuvi, jamiyatni barcha a'zolari ehtiyojlarini atrof muhityaxlitligini saqlagan holda qondirish va iqtisodiy salohiyat hamda barcha avlod kisilarining talablariga o'rtasidagi muvozanatni saqlash deb ta'kidlaydi.

“Muvozanat” tushunchasi –tabiiy fanlardagi universal tushunchalardan biri bo'lib, istalgan tizimga nisbatan qo'llash mumkun. Biroq muvozanat barqaror, beqaror va har xil befarq bo'lishi mumkun.

Barqaror rivojlanishning “iqtisodiy o'sish” deb ataluvchi, hozirgi va kelgusi avlodlarning moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi, tarixan shakllangan ekotizimlarda muvozanatni ta'minlovchi talqini ham bor.¹⁶

Bunday tariff bilan kelishish qiyin yohud bu yerda tabiatni, aholi, iqtisodiyotni bir tekis rivojlanish masalasi qarab chiqilmaydi. Bundan tashqari, keng qo'llaniladigan “barqaror iqtisodiy o'sish” tushunchasi dinamik muvozanat va barqaror toifali rivojlanishni tariflaganda qo'llaniladi.

¹³ Моисеев, Н.Н. Судьба цивилизации. Путь разума [Текст] / Н.Н. Моисеев. – М.: Языки русской культуры, 2000. – 223 с.

¹⁴ Моисеев, Н.Н. Коэволюция природы и общества [Текст] / Н.Н. Моисеев // Экология и жизнь. – 1997. – № 2-3

¹⁵ Нуреев, Р.М. Экономика развития: модели становления рыночной экономики [Текст]: учеб. пособие / Р.М. Нуреев. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 240 с.

¹⁶ Лось, В.А. Устойчивое развитие [Текст]: учеб. пособие / В.А. Лось, А.Д. Урсул. – М.: Агар, 2000. – 253 с.

Bundan tashqari, o'sish, yosh bu miqdor jihatdan ko'pchiligining o'zgarishidir, rivojlanish bo'lsa, birinchi navbatda butun tizimni sifat jihatdan o'zgarish, uning yuqori sifat darajasiga o'tishdir.

Barqaror rivojlanish asosida yotuvchi barqaror o'sish faqat diskret holda amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun, ma'lum vaqt oralig'idan keyin o'sish barqaror rivojlanishda o'zgaradi, yani rivojlanish muayyan siklik davr o'zgarishlari bilan kuzatiluvchi, musbat o'sishdagi uzilishlarni o'z ichiga oluvchi rivojlanishdir. Yetarlicha uzoq davr mobaynida harakat vektori o'zining nomini va manfiy og'ishlariga qaramasdan umumiy holatda musbat yani ijobiy yo'nalishga ega bo'ladi.

Barqaror rivojlanishning eng keng tarqalgan talqini sifatida mutanosib rivojlanish qayd etiladi.

Aytish joizki, barqaror rivojlanish asosida mutanosib rivojlanish yotadi va u uyg'un holda amalga oshiriladi. Shuning uchun muayyan vaqt oralig'ida barqaror o'sish barqaror rivojlanishga transformatsiyalanadi, ya'ni rivojlanish muayyan davriy o'zgarishlar bilan, musbat o'zgarishlar, o'sishlardagi o'zgarishlar bilan kuzatiladi. Biroq harakat vektori yetarlicha uzoq vaqt oralig'ida nollik manfiy og'ishlarga qaramasdan, asosan musbat yo'nalishga ega bo'ladi.

Barqaror rivojlanishning keng tarqalgan talqini mutanosib rivojlanish sifatida qaraladi. Biroq, ayrim adabiyotlarda ta'kidlanishicha barqaror rivojlanish odatda turli o'zaro faoliyat bir biriga bog'liq boshqaruv va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlarini inobatga olgan holdagi rivojlanish bo'lib, amaliy jihatdan uni ta'minlash mumkin emas, biroq unga odatda intiliniladi. Mazkur iqtisodiy kategoriyaning boshqa tariflari ham mavjud (1.2.1-jadval).

“Barqaror rivojlanish” tushunchasining turli talqin etilishi sabablaridan biri tarjimaning noaniqligidir. V.I. Danilov-Danil'yaning ta'kidlashicha, barqaror rivojlanish to'g'risidagi munozaralar aynan so'zdagi bahslarni keltirib chiqaradi. Inglizchadagi “Sustainable development” so'zining barqaror deb tarjima qilinishi muvaffaqiyatsiz sanaladi. Agar uni boshqa tillarga so'zma so'z tarjima qilinsa

“qo’zg’almas qattiq” deb tarjima qilinadi. Biroq ruscha tarjima varianti—eng muvaffaqiyatli variantdir.¹⁷

1.2.1-jadval

“Barqaror rivojlanish” tushunchasining ayrim talqinlari

Tushunchaning mazmuni
Yashayotgan kishilarning yashash ehtiyojlari qondirilib va kelgusi avlodlarning o’z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari saqlanishi ta’kidlanuvchi rivojlanishdir. ¹⁸
Kelgusi avlodlar uchun moddiy resurslarni tugab qolishiga olib kelmaydigan iqtisodiy rivojlanishning turidir. ¹⁹
Barqaror rivojlanish – iqtisodiy o’sish bilan inson salohiyatining adolatli rivojlanish va sog’lom mahsuldor eko tizimlarning kutilgan muvozanatli rivojlanishdir. ²⁰
Mamlakat (mintaqa)ning tanlangan strategiya trayektoriyasi bo’yicha xujumkor harakati bo’lib, belgilangan jamiyat maqsadlariga obyektiv ravishda jadal erishish yo’lidir. ²¹

Demak, barqaror rivojlanish chuqur falsafiy va iqtisodiy mazmunga ega bo’lib, uning doirasida tizimni qarama-qarshiliklar birligi sifatida qaraldi. Barqaror rivojlanish qarama-qarshiliklar uyg’unligidir: barqarorlik va o’zgaruvchanlik, saqlanish va yangilanish, bir xillik va hilma-hillik. Insoniyat ehtiyojlarini va intilishlarini qondirish barqaror rivojlanishning asosiy vazifasi sanaladi. Biroq iqtisodiy o’sishning birgina o’zi yetarli emas, chunki, yuqori darajali ishlab chiqarish faoliyati keng tarqalgan kambag’allik tufayli amalgam oshishi va atrof muhit uchun xavf bo’lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, barqaror rivojlanish o’z mohiyatiga ko’ra, o’zgarishlar jarayoni bo’lib, unda resurslardan foydalanish, kapital qo’yilmalar yo’nalishi, texnologik rivojlanish yo’nalishlar, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat bilan uyg’unlashib joriy va kelgusi salohiyatni oshiradi.

¹⁷ Данилов-Данильян, В.И. Устойчивое развитие (теоретико-методологический анализ) [Текст] / В.И. Данилов-Данильян // Экономика и математические методы. – 2003. – № 2. – С. 123-135.

¹⁸ Экологический энциклопедический словарь [Текст]. – СПб.: Ноосфера, 2002. – 930 с.

¹⁹ Розенберг, Г.С. Устойчивое развитие: мифы и реальность [Текст] / Г.С. Розенберг, Г.П. Краснощеков, Ю.М. Крылов [и др.]. – Тольятти, ИЭВБ РАН, 1998. – 191 с.

²⁰ Кретинин, В.А. Теоретические аспекты устойчивого развития региона и критерии его оценки [Электронный ресурс] / В.А. Кретинин, Е.С. Бордюшов // Экономика региона. – 2007. – № 18 (дек.). – Режим доступа: <http://journal.vlsu.ru/index.php?id=16>

²¹ Агафонов, Н.Т. Основные положения концепции перехода Российской Федерации на модель устойчивого развития [Текст] / Н.Т. Агафонов, Р.А. Исляев. – СПб.: Центр регионально-политических исследований и проектирования, 1995. – 117 с

1.3. Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati ko'rsatkichlari

Xorazm viloyati Markaziy Osiyoda joylashgan O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tarkibiy qismidir.

Xorazm viloyati markazi Urganch shahri bo'lib, uning yer maydoni 6,1 ming kv km. ga teng. 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, doimiy aholisi soni 1 747,0 ming kishini tashqil qilib, 2015 yilning shu davriga nisbatan 31,4 ming kishiga yoki 1,8 foizga ko'paydi. Aholi zichligi 1 kv km. ga 286 kishini tashkil qiladi.

Viloyat hududining uzunligi Shimoliy - g'arbdan janubiy - sharqqa 280 km. Urganch shahri joylashgan kenglikda g'arbdan-sharqqa 80 km.

Xorazm viloyati Shimol va shimoliy sharqda Qoraqalpog'iston respublikasi, sharqiy janubda Buxoro viloyati, janub va g'arbdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh hisoblanadi.

Shimoliy nuqtasi Gurlan tumani, Olchin qishlog'i, Janubiy (chekka) nuqtasi Xazorasp tumani, Tupraqqa'la qishlog'i sanaladi.

Iqlimi keskin kontinental bo'lib, o'rtacha harorati yanvar oyida – -9.....-10., Iyul oyida +26.....+29 C ni tashkil qiladi.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida joylashgan bo'lib, 1938-yil 15-yanvarda asos solingan. yer maydoni 6,1 ming kv.km.ni tashkil etadi va O'zbekiston hududining 1,4 % ni egallaydi. Doimiy aholi soni 2016-yil 1-yanvar holatiga 1747,0 ming kishiga teng bo'lib, zichligi 1 kv.km ga 286 kishidan to'g'ri keladi. Aholining 32,9 % shaharda, 67,1 % qishloqda yashaydi.

Viloyat geografik o'rniga ko'ra 40° - 31° va 42° shimoliy kengliklar 60° - 62° sharqiy uzunliklar oralig'ida joylashgan. Hududi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa 280 km, Urganch shahri joylashgan kenglikda g'arbdan sharqqa 80 km atrofida cho'zilgan. Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuronbobo to'qayiga to'g'ri keladi. Janubiy chekka nuqtasi esa Tupraqqal'adan bir muncha janubda joylashgan.

Viloyat hududining 80 % Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab joylashgan va 4,5 ming kv km tashkil etadi.

Xorazm viloyati yer tuzilishi jihatidan ikki qismga. Dengiz satxidan 100-110 m baland bo'lgan katta shimoliy qismga va dengiz satxidan 120-150 m gacha baland bo'lgan chekka janubiy qismga bo'lish mumkin.

Viloyatning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to'siqlarni yo'qligi, arktikadan va sibirdan sovuq havo massalarining bemalol kirib kelishiga sharoit yaratadi.

Viloyat iqlimi keskin kontinental bo'lib, maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq 78° ga teng. Viloyat hududining qumlar bilan o'ralganligi sababli yoz kunlari harorat 43° - 45° C darajaga ko'tariladi. Qish faslida eng past harorat - 30° - 33° C sovuqni tashkil etadi. Bu erda yozning issiq, qishning sovuq kelishi ob-havoning sutka davomida keskin o'zgarishi, yog'in sochinning kamligi, havoning quruqligi viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir.

Xorazm viloyati ma'muriy hududiy tuzilishi bo'yicha 10 ta *Bog'ot, Gurlan, Shovot, Qo'shko'pir, Xiva, Xonqa, Xazorasp, Yangibozor, Yangiariq, Urganch* tumanlari va Urganch shahriga ajratiladi.

Bular o'z navbatida, 98 qishloq fuqorolar yig'ini, 559 aholi punktlari, 3 ta shahar va 58 ta shahar tipidagi shaharchalarga bo'linadi.

Viloyat markazi Urganch shahri bo'lib, 2014-yil 1-yanvar holatiga Urganch shahrida 137,4 ming kishi istiqomat qiladi.

Xorazm viloyatining hududi 6,1 ming.kv.km ni, doimiy aholisi esa 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 747,0 ming kishini , yoki respublika aholisining 5,4 % ni tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatinig aholisi qariyb 0,5 mln.kishidan ko'proqqa o'sdi. Agar 1994-yilda viloyat aholisi 1167,0 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yil yakuniga ko'ra 1747,0 ming kishini tashkil qilgan yoki shu yillarda aholi o'sishi 149,7 foizga yetgan.

Endi Xorazm viloyatining 1994-2015 yillardagi ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, 1994 yilda viloyatning YaHM 3,6 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilda 143,1 mlrd.so'mni yoki 1994 yilga nisbatan nominal hisobda 40 barobar, 2005 yilda 595,2 mlrd.so'mni

yoki 2000 yilga nisbatan 4,1 barobar, 2015 yilda 5692,6 mlrd.so'mni yoki 2005 yilga nisbatan 9,5 barobar oshgan .

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1994-yilda 22,3461 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 49,9769 mlrd. so'mga yetgan yoki qariyb 125 foizga oshgan, 2005-yilda 214,8061 mlrd. so'mni, 2015-yilga kelib esa 2351,7 mlrd. so'mni tashkil etgan va mos ravishda shu davrda Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,3 va 11 barobarga oshgan. Bu albatta keyingi yillarda respublikamiz hukumati tomonidan Xorazm viloyati bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 29-iyuldagi "2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1590-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-noyabrdagi "Xorazm viloyatini 2013-2015 yillarda sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1856-son Qarorlarining ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan bir qator ishlarning natijasi deb e'tirof qilish mumkin.

Xorazm viloyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari va Hukumati qarorlari asosida barcha tarmoqlarda iqtisodiy islohotlar ketma-ketlik bilan amalga oshirilmoqda. Davlat Dasturlarining bajarilishiga, xususiyl sektorini rivojlantirishga, aholini ijtimoiyl himoya qilishga, shahar va aholi punktlarini obodonlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2013-yilda 1025,1 mlrd so'mni tashkil qilib 2012-yilga nisbatan 111,8 foizga bajarildi. Jumladan, "Urganch issiqlik tarmoqlari" MChJ korxonasi tomonidan 2013-yil yakuni bilan 2,3 mlrd.so'mlik (105,0 foiz) mahsulot ishlab chiqarilishi belgilangan. 2013-yilda korxonasi tomonidan 1,8 mlrd.so'm (84,8 foiz) sanoat mahsulot ishlab chiqarildi. Buning natijasida "Urganch issiqlik tarmoqlari" MChJ korxonasi tomonidan bu esa prognozga nisbatan 450,0 mln.so'm (20,2 punktga) kam sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Korxonada bugungi kunda asosan issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Xozirda korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan issiqlik energiyasiga

iste'molchilar tomonidan o'tgan yilga nisbatan kam talab bo'lganligi sababli yil yakuni bilan ishlab chiqarilishi kutilayotgan issiqlik energiyasi hajmi 87,1 % yoki 13703 Gkal ga kamaygan. Xususan, Urganch shaxrida yangi imoratlar qurilishi munosabati bilan qozonxonaning "Shimoliy" hududida joylashgan barcha issiqlik iste'molchilari, ya'ni "Urganch turizm va tadbirkorlik" KHQ, ATs-7, Xorazm viloyati tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi, Xorazm Magistral elektr tarmoqlari, "Urganch o't o'rish mashinalari zavodi" OAJ, "Energomontaj" MChJ, "Coca-cola ichimligi" qo'shma korxonasi issiqlik energiyasi yetkazib beruvchi issiqlik tizimi "Urganch o't o'rish mashinalari" OAJ tomonidan demontaj qilingan. Natijada, korxonada issiqlik energiyasi ishlab chiqarish 2114 Gkal ga va asosiy xaridor "Urganch yog'-moy" OAJ o'z texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilganligi sababli issiqlik energiyasini iste'molini kamaytirgan.

Yuqoridagi ko'rsatilgan iste'molchilarga va yangidan qurilayotgan ijtimoiy soxa ob'yektlarga (sportkompleks, kollej, maktab) issiqlik energiyasi yetkazib berish quvurlarini bosh rejaga asosan modifikatsiyalash va ulash ishlarida amaliy yordam ko'rsatish lozim.

"Xorazm gilamlari" MChJ korxonasi tomonidan 2013-yil yakuni bilan 11,5 mlrd.so'm (102,3 foiz) mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 2012-yilga nisbatan o'sish 102,3 foizni tashkil qildi. Biroq, bu belgilangan prognozga nisbatan 0,8 mlrd.so'm (7,4 punktga) kam bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri gilam ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyolardan biri djut kalavasi hisoblanib, korxonaning ushbu turdagi hom-ashyoga yillik ehtiyoji 350 tonnani tashkil qiladi. Djut kalavasi O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilmaganligi sababli, korxonada uzluksiz ishlab chiqarish amalga oshirilishi uchun ushbu hom ashyolar doimiy ravishda import qilinishi kerak. Biroq korxonaning o'z valyutasi yo'qligi sababli, ushbu hom-ashyoni sotib olish uchun korxonada doimiy ravishda milliy valyutadagi mablag'ni xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish uchun blok schyotga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonida tabiiy gazning uzluksiz yetkazilishida muammolar mavjud, bu holat

mahsulot ishlab chiqarish hajmiga va sifatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sotilishiga ham salbiy ta'sir qilmoqda.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan omillar ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxining qimmatlashishi, pirovardida sotish hajmining kamayishiga va korxonaning moliyaviy xolatining yomonlashishiga olib kelmoqda.

Tuyamo'yin suv inshooti elektrostansiyasida 2013-yilda 32,5 mlrd.so'mlik (87,0 foiz) mahsulot ishlab chiqarilishi belgilangan bo'lib, 2013-yilda korxonadan 22,0 mlrd.so'm (59,1 foiz) mahsulot ishlab chiqarildi.

Buning natijasida Tuyamo'yin suv inshooti elektrostansiyasida prognozga nisbatan 10,4 mlrd.so'm (27,9 punktga) kam sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Korxonadan elektr energiyasi ishlab chiqariladi va korxonadan yiliga 1500 mln.kVt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati mavjud.

2013-yilda korxonadan 576 mln. kVt elektr energiyasi ishlab chiqarish belgilangan bo'lib, shu yilda 391 mln. kVt elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bu esa prognoz ko'rsatkichidan 185 mln. kVt ga kam.

Buning asosiy sababi Amudaryo o'zanidan kelayotgan suv oqimi miqdorining o'tgan yilga nisbatan kamligi va buning natijasida suv bosimining pastligi (suvning o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 149,3 m.sga kam kelganligi (o'tgan yilga nisbatan 55,5 % tashkil qiladi), suv satxining balandligi 1,19 metrga past bo'lganligi (o'tgan yilga nisbatan 92,6 % tashkil qilgan) hisoblanadi.

Shuningdek, Amudaryo o'zanidan kelayotgan suv oqimi loyqaligi miqdorining me'yoridan ortiqchaligi natijasida GES gidroagregatlari sovetish tizimi texnologik jihatdan yetarli darajada ishlamasligiga olib keladi, buning natijasida GES gidroagregatlarining to'xtatilishiga olib keladi.

Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-noyabrdagi "Xorazm viloyatini 2013-2015 yillarda sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1856-son Qarorining bajarilishi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, ushbu qarorga asosan 2013-yilda 136 ta loyiha amalga oshirilib, 53,6 mln.AQSh dollari miqdorida investisiya o'zlashtirilishi va 2422 ta yangi ish o'rinlari yaratilish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 147 ta loyiha

amalga oshirilib, 48,4 mln.AQSh dollar miqdorida investisiyalar o'zlashtirildi hamda 2527 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, viloyatda sariyog' va margarin, metall profillar, sport inventarlari kabi yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Dasturga kiritilgan loyihalar tomonidan 2013 yilda 24,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2014 yilda Dastur doirasida jami 99 ta loyihalar amalga oshirilib, 218,3 mln.dollar investisiyalar o'zlashtiriladi hamda 4825 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.


2014-yil 1-chorakda 12 ta loyihalar amalga oshirilib, 63,9 mln.dollar investisiyalar o'zlashtiriladi hamda 698 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Xorazm viloyatida 2000-2013 yillarda qishloq xo'jaligini rivojlanishi holatini tahlil qiladigan bo'lsak, 2000-yilda yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti 346184,9 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 131752,2 mln.so'mni yoki 2000 yilga nisbatan qariyb 32 foizga kamaygan bo'lsa, 2013-yilda 1858400,0 so'mni yoki 2000- yilga nisbatan o'sish 5,4 barobarni tashkil etgan. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturiga asosan 24,3 mln.dollarlik 222 ta loyiha amalga oshirish hisobiga chorvachilik va bog'dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish go'sht 4,3 foizga (111,0 ming tonna), sut 4,5 foizga (749,3 ming tonna), tuxum 6 foizga (294 mln. dona), baliq 29,1 foizga (5 ming tonna) va asal 1,5 barobarga (699 tonna) o'sishi hamda qo'shimcha 1398 ta yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan edi. Jumladan, chorvachilik sohasida 73 ta (17,3 mln.dollari), parrandachilik tarmog'ida 36 ta (9,2 mln. dollar), baliqchilikda 43 ta (1,5 mln.dollar) va asalarichilikda 20 ta (266 ming dollar), 16 ta mahalliy (127 ming dollar) va 11 ta intensiv bog' (26,9 ming dollar), 3 ta loyixada issiqxona (142 ming dollar) hamda 9 ta loyixada sovutkichli sig'implarni (1,4 mln.dollar) tashkil qilish belgilangan. Shuningdek, chetdan 600 bosh naslli qoramollar olib kelish belgilangan.

Viloyatda qishloq xo'jaligi sohasining mutloq ishloq chiqarish hajmi oshayotgan bo'lsada, YaHMning 2007-2014 yillardagi tarmoq tarkibi dinamikasi tahlillari ko'rsatishicha 2007 yilda qishloq xo'jaligining ulushi YaHMda 41,5

foizdan 2014 yilga kelib 32,8 foizgacha pasaygan va o'z navbatida YaHMda sanoatning ulushi 8,1 foizdan 11,5 foizga yoki qariyb 1,5 barobarga, xizmat ko'rsatish va servis sohasining ulushi 36,3 foizdan 37,7 foizga oshgan (1.3.1-diagramma).

1.3.1-diagramma



1.3.1-diagramma. 2007-2014 yillarda YaHMning tarmoq tarkibi²²


Qurilish sohasida ham 2007 yilda YaHMning 6,9 foizdan 2014 yilga kelib 8,3 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin. Xorazm viloyatida YaHMda qishloq xo'jaligining ulushi kamayishiga qaramasdan respublikamizdagi kabi aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan.

²² Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

II-BOB. MINTAQANI IJTIMOY-IQTISOIY RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN DAVLAT DASTURLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish holati va sohani rivojlantirish bo'yicha davlat dasturining bajarilishi.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy tuzilmasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Jizzax va Surxandaryo viloyatlari bilan bir qatorda sanoat salohiyati yaxshi rivojlanmagan hududlar sirasiga kiradi. Viloyatning sanoat sektori asosan qishloq xo'jaligi xomashyosini birlamchi qayta ishlashga, xususan paxta tozalash sohasiga ixtisoslashgan. Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarish darajasi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxandaryo viloyatiga nisbatan biroz yaxshi hisoblanib, 12-o'rinni egallaydi. Hududda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 2000-yildan buyon o'rtacha respublika ko'rsatkichiga nisbatan pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda. So'nggi uch yilda bu ko'rsatkich o'sayotgan bo'lsada, 31 foizdan oshmayapti. Respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan ishlab chiqarish darajasining keskin farqlanishi (3,3 barobar), shuningdek, viloyatning Navoiy (11,8 barobar), Toshkent (5,4 barobar) viloyatlari va Toshkent shahri (9,3 barobar)dan ortda qolayotgani hududlar o'rtasida tabiiy-xomashyoning notekis joylashganligi hamda undan foydalanish talab darajasida emasligi bilan bog'liqdir (2.1.1-diagramma).



2.1.1-diagramma. 2013-yilda O'zbekiston hududlarida sanoat ishlab chiqarish darajasini taqqoslash (Respublika ko'rsatkichiga nisbatan foiz hisobida)²³

²³ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 49 b.

Viloyat iqtisodiyotining qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganligi va qishloq xo'jaligi boy xomashyosining mavjudligi, shu o'rinda foydali qazilma konlarining yo'qligi sanoatni qishloq xo'jalik mahsulotlariga birlamchi ishlov berishga ixtisoslashtirishga olib kelgan. Shunday qilib, Xorazm viloyati sanoati qishloq xo'jaligi - engil sanoat, jumladan paxta tozalash, oziq-ovqat va tegirmonchilik tarmoqlari mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilmoqda. 2000-2013 yillarda an'anaviy tarmoqlar bilan bir qatorda qurilish materiallari sanoati, mikrobiologiya va yog'ochni qayta ishlash sanoati ham rivoj topdi.

Xorazm viloyati sanoatini rivojlantirish, asosan, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, tegirmonchilik va yoqilg'i sanoatida ishlab chiqarish yuqori darajada yuksalib borayotgani bilan bog'liq bo'lib, bu sanoatda ijobiy tarkibiy o'zgarishlarga va mintaqaning sanoatlashtirish darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatmoqda (2000-yildagi 8,5 foizdan 2013-yilda 9,5 foizgacha).

Viloyat shakar (100%) va alkogolsiz ichimliklar (17,5%) ishlab chiqarishda respublikada o'zining salmoqli o'rniga ega. Bundan tashqari mintaqaning paxta etishtirish borasida etakchi o'rin egallashi paxta tolasi (8,2%), o'simlik yog'i (7,9%) ishlab chiqarishda yuqori natijalarga erishish, boshqoqli ekinlar etishtirish borasidagi qulay sharoitlar un (6 %) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkonini bergan.

Yengil sanoat viloyatda an'anaviy sohalardan bo'lib, hududning ishlab chiqarish faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bu soha umumiy sanoat ishlab chiqarishida 40,5 foizni egallaydi.

Yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuv ko'p jihatdan soha umumiy ishlab chiqarish hajmining 85 foizini tashkil etadigan 12 ta yirik korxonalar faoliyati bilan bog'liq. Mintaqada muhim qishloq xo'jalik xomashyosi - paxta etishtirish uchun qulay sharoitlar mavjudligi e'tiborga olingan holda, mazkur korxonalardan aksariyati (sakkiztasi) ning faoliyati paxta tozalash sohasiga yo'naltirilgan bo'lib, sanoatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi mazkur sohaga to'g'ri keladi (75 foizdan ziyod). Mahalliy paxta xomashyosining

75 foizdan ortig'ini qayta ishlaydigan paxta tozalash korxonalarining sanoatdagi ulushi esa 30,1 foizini tashkil qiladi. 2000-yildan 2013-yilgacha bo'lgan davrda paxta tolasi ishlab chiqarish 1,2 barobar o'sgan va 2013-yilda 89 ming tonnani tashkil etgan.

Shu o'rinda aytish joizki, paxta tolasi viloyatda eksport qilinadigan asosiy mahsulot hisoblanadi. Ushbu boy xomashyoni qayta ishlash sanoatini kengaytirishga doir loyihalarni amalga oshirishga iqtisodiy o'sishning muhim zaxirasi, deb qarash mumkin. Chunki, bugungi kunda viloyatda paxta tolasining bor-yo'g'i 10-12 foizigina qayta ishlanyapti, xolos. Paxta xomashyosidan tayyor mahsulot sifatida tibbiyot binti va paxtasi, paypoqlar, erkaklar kostyumi, ayollar kuylagi, yotok anjomlari, erkaklar ichki kiyimlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Xususan, natural shaklda ip-kalava va mato ishlab chiqarishning o'sishi bilan birgalikda (5,5 marta) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ham ijobiy tendentsiyalar kuzatilmoqda (2,5 marta).

Pilla etishtirish va jun ishlab chiqarish borasida viloyatda muayyan qulayliklarga ega bo'lgan ipak va jundan tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Xorazm viloyati azaldan gilamdo'zlik bilan mashhur bo'lib, bu boradagi tajriba va an'analar ming yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. "Xorazm gilamlari" mas'uliyati cheklangan jamiyatida, shuningdek, kichik korxonalarda ishlab chi qarilayotgan gilam va gilamdo'zlik buyumlari o'zining yuqori sifati, ichki va tashqi bozorda xaridorgirligi bilan ajralib turadi.

Yengil sanoat mahsulotlariga talab ortib borayotganiga qaramasdan, mintaqaning mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ichki bozor talabini qondirish darajasi pastligicha qolmoqda. Mintaqaning gilamchilik buyumlari, mato va ip-kalava, erkaklar kostyumi, kurtkalar, poyabzalga bo'lgan ehtiyoji ichki ishlab chiqarish evaziga qisman qanoatlantirilmoqda (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Xorazm viloyati aholisining o'z ishlab chiqarish hisobidan engil sanoat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi²⁴

Tovar nomi	Viloyat ehtiyoji	2013-yilda ishlab chiqarish hajmi	O'zida ishlab chiqarish hisobidan ehtiyojni qondirish, (foizda)
Gilam va gilamchilik buyumlari,(mln.kv.m)	673,5	619,9	92,0
Erkaklar kastyumi, (ming dona)	101,0	66,2	65,5
Gazlama, (ming.kv.m)	11 785,9	3 814	32,4
Ip, (ming.kv.m)	18 520,7	4 396,5	23,7
Kurtka, (ming dona)	151,5	23,7	15,6
Erkaklar ich kiyimi, (ming dona)	5 556,2	82,7	1,5
Poyabzal, (ming juft)	4 040,9	36,6	0,9
Shim, (ming dona)	404,1	0,6	0,1
Paypoq, (ming juft)	9 765,5	5,9	0,1

Oziq-ovqat sanoati viloyat sanoati tarkibida o'z ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. U ishlab chiqarish umumiy hajmining 38,6 foizini, shu jumladan tegirmonchilik-yorma 16,2 foizini ta'minlaydi. Sohada ishlab chiqarishning 70 foizdan ortig'ini tashkil qiladigan yirik korxonalar faoliyati shakar, ichimliklar, tegirmon va yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Xorazm viloyati yog'-moy (7,0%), alkogolsiz ichimliklar (7,5%) ishlab chiqarishga ham munosib hissa qo'shmoqda. Shuningdek, viloyatda O'zbekistondagi yagona shakar zavodi ham bor. Ayni paytda ushbu zavodning mahalliy shakarkamish homashyosini qayta ishlash bo'yicha quvvati kuniga ming tonna shakar ishlab chiqarish imkonini bermoqda va bu O'zbekiston aholisi ehtiyojini qariyb 50 foizini qisman qondirmoqda.

Tegirmonchilik-yorma tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosiy qismini un (93 foizdan ziyod) va atigi 3,3 foizini yorma mahsulotlari tashkil etadi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini hisobga olgan holda, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ham non va non mahsulotlari, makaron,

²⁴ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 53 b

kolbasa, meva-sabzavot konservalari, sut mahsulotlari ishlab chiqarish kengayib bormoqda. So'nggi yillarda shakar (30 barobardan ziyod), sut mahsulotlari (7 barobar), likyor-aroq (2,3 barobar), kolbasa (1,1 barobar) mahsulotlari va mineral suvlar (1,2 barobar) ishlab chiqarish sezilarli ravishda ko'paydi.

Yana shuni qayd etish kerakki, mintaqaning ko'plab oziq-ovqat tovarlari bilan o'zini o'zi ta'minlash darajasi pastligicha qolmoqda. Masalan, aholining shakar, yorma, o'simlik yog'i kabi oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan ehtiyoji ushbu mahsulotlarni shu erning o'zida ishlab chiqarish hisobidan to'liq qondirilmoqda. Shuningdek, aholini un va tuzga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash 40-50 foizni, margarin mahsulotlari, pishloq, kolbasa mahsulotlari bilan ta'minlash esa 1,5-5,0 foizni tashkil qiladi. Go'sht, baliq konservalari, brinza, bolalar ovqatlari hududda ishlab chiqarilmaydi. Yuqorida qayd etilgan tovarlarga bo'lgan ehtiyoj Toshkent shahri va mamlakatning boshqa hududlaridan keltiriladigan mahsulotlar hisobidan qoplanmoqda (2.2.2-jadval).

Qurilish sanoatining tobora ortib borayotgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida qurilish materiallari ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarishining 7,4 foizi ushbu soha ulushiga to'g'ri keladi. Xorazm viloyati O'zbekistonning boshqa hududlari kabi mineral-xomashyo resursiga boy emas. Bu erda g'isht xomashyosi va qum kabi foydali qazilmalar bor, xolos.

Viloyatda mahalliy qurilish mahsulotlarining 75 foizdan ortig'ini tashkil qiladigan yig'ma temir-beton va beton materiallar (27,6%), devorbop materiallar (47,9%) asosiy tovarlar hisoblanadi. G'isht, sopol cheripitsalar, shlakobloklar, shifer, qoraqog'oz, mix, oxak, gips mahsulotlari ishlab chiqarish bilan asosan kichik korxonalar shug'ullanmoqda.

2.2.2-jadval

Xorazm viloyati aholisini viloyatning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobidan oziq-ovqat tovarlari bilan ta'minlash darajasi²⁵

Mahsulot turi	Viloyat ehtiyoji	2013-yilda ishlab chiqarish hajmi	Viloyatning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobidan ta'minlash darajasi, (foizda)
Shakar, (ming tonna)	32,7	356,4	1 091
O'simlik yog'i, (ming tonna)	14,0	22,8	163,2
Yorma, (ming tonna)	6,4	8,4	130,6
Un (non hisobga olinganda), (ming tonna)	162,5	76,6	47,1
Tuz, (ming tonna)	5,4	2,5	46,4
Qandolatchilik mahsulotlari, (ming tonna)	3,2	0,6	17,9
Makaron mahsulotlari, (ming tonna)	9,3	1,0	10,6
Pishloq, brinza, (ming tonna)	6,5	0,3	4,7
Margarin mahsulotlari, (ming tonna)	2,9	0,1	2,5
Kolbasa mahsulotlari, (ming tonna)	5,2	0,1	1,7

Bundan tashqari viloyatda yangi, noan'anaviy ishlab chiqarish-mashinasozlik va kimyo tarmoqlarini o'zlashtirish boshlangan.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish bilan traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligiga ixtisoslashtirilgan ("Urganch ekskavator" AJ va "Agro maxsus tuzatish-sozlash" MChJ) yirik korxonalar hamda avtomobilsozlik sanoati uchun ehtiyot qismlar, qishloq xo'jaligi texnikasi va traktorsozlik uchun detal va uzellar, isitish qozonlari ishlab chiqaradigan va mashina hamda uskunalarni ta'mirlaydigan kichik korxonalar shug'ullanmoqda.

Shu bilan birga, 2014-yilda Hazorasp tumanida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida "Damas" va "Orlando" rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi kelajakda yuqori

²⁵ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 56 b.

qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini oshirish va ushbu guruhdagi tovarlar bo'yicha Xorazm viloyatida yuqori raqobat ustunliklarini yuzaga keltiradi. Mashinasozlik sanoati bo'yicha bunday istiqbolli loyihaning amalga oshirilishi yangi texnologiyali avtomobil ishlab chiqarish, shuningdek, nafaqat Xorazm viloyati tumanlari, balki Qoraqolpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida ham mahalliyashtirilgan ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi. Ayni vaqtda mashinasozlik va metallga ishlov berish asnosida aralash tarmoqlar va yordamchi ishlab chiqarishlar, xususan, kimyo sanoati va oyna ishlab chiqarish rivojlanadi.

Viloyat sanoatining 1,0 foizini tashkil qiladigan kimyo sanoatida plastmassa buyumlar, plyonka, polimer materiallardan quvur va listlar, polimer idishlar, lak-bo'yoq materiallari ishlab chiqaradigan kichik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida korxonalarining izchil ravishda ixtisoslashtirilayotgani ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini berishi bilan birga, sanoatda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish darajasini belgilaydi. Xorazm viloyati sanoatining diversifikatsiya darajasi pastligi yaxshi ayon.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini yuksaltirish hamda mintaqani respublikamizning Toshkent, Andijon va Navoiy viloyatlari kabi sanoati rivojlangan hududiga aylantirish maqsadida Muhtaram Prezidentimizning 2012-yil 22-noyabrdagi "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1856-sonli qarori qabul qilindi. Dasturga muvofiq jami 462,0 mln.dollarlik 253 ta loyihalarni amalga oshirish hisobiga 8870 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan.

Yillar bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsak, 2013-yilda umumiy qiymati 53,6 mln.AQSh dollar miqdoridagi 136 ta loyiha amalga oshirilishi va 2422 ta yangi ish o'rinlari;

2014-yilda umumiy qiymati 155,8 mln.AQSh dollar miqdoridagi 80 ta loyiha amalga oshirilishi va 4028 ta yangi ish o'rinlari;

2015-yilda umumiy qiymati 252,6 mln.AQSh dollar miqdoridagi 37 ta loyiha amalga oshirilishi va 2420 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Dasturga asosan 2013-yilda 136 ta loyiha amalga oshirilishi, 53,6 mln.AQSh dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirilishi va 2422 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Amalda 2013-yilda 147 ta loyiha amalga oshirilib, 48,4 mln.AQSh dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi hamda 2527 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Jumladan,

- oziq ovqat sanoatini rivojlantirish bo'yicha 55 ta loyiha (17,1 mln.dollar, 695 ta ishchi o'rni);

- qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi bo'yicha 57 ta loyiha (11,0 mln.dollar, 788 ta ishchi o'rni);

- mashinasozlik sohasi bo'yicha 4 ta loyiha (4,4 mln.dollar, 183 ta ishchi o'rni);

- yengil sanoat va boshqa nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi bo'yicha 31 ta loyiha (15,9 mln.dollar, 861 ta ishchi o'rni) foydalanishga topshirildi.

Xususan:

- Urganch shahridagi "Glass Pro" MChJ tomonidan 935 ming dollar investitsiya kiritilishi hisobiga shishaga ishlov berish loyihasi amalga oshirildi hamda 40 ta yangi ish o'rinlari yaratildi;

- "Uzbekneftgaz" MXK tomonidan 3,5 mln.dollar investitsiya kiritilishi hisobiga siqilgan gaz uchun maishiy balonlar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi hamda 70 ta yangi ish o'rinlari yaratildi;

- Qo'shko'pir tumanidagi "Qo'shko'pir silikat g'isht zavodi" MChJ tomonidan 658 ming dollar investitsiya kiritilishi hisobiga silikat g'isht ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi va 45 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, viloyatda sariyog' va margarin, metall profillar, sport inventarlari kabi yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Dasturga kiritilgan loyihalar tomonidan 2013-yil yanvar-dekabr oylarida 24,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2014-yilda jami 99 ta loyiha amalga oshirilib, 218,3 mln.dollar investitsiyalar o'zlashtirilishi hamda 4825 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan.

Xususan:

oziq-ovqat sohasida 50,0 mln.dollar investitsiya kiritilishi hisobiga 33 ta loyihada 668 ta ish o'rni,

qurilish materiallari sanoatida 18,9 mln.dollar investitsiya hisobiga 18 ta loyihada 524 ta ish o'rni,

mashinasozlik yo'nalishida 97,1 mln.dollar investitsiya hisobiga 15 ta loyihada 1520 ta ish o'rni,

yengil sanoat va boshqa nooziq-ovqat mahsulotlari yo'nalishida 52,3 mln.dollar investitsiya hisobiga 33 ta loyihada 2113 ta ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

2014-yil 1-oktyabr holatiga 60,0 mln. dollarlik 50 ta loyihalar amalga oshirish belgilangan bo'lib, haqiqatda 77,0 mln. dollarlik 52 ta loyihalar amalga oshirilgan.

Jumladan:

- oziq-ovqat sanoatida 17 ta loyiha (15,4 mln.doll) 298 ta ish o'rinlari yaratildi. (misol uchun: "Yangibozor ulgurji savdo" MChJ tomonidan qandolat mahsulotlari, "Shavkat Klara" xususiy korxonasi tomonidan non va non mahsulotlari ishlab chiqarish)

- qurilish materiallari sanoatida 10 ta loyiha (2,8 mln.doll) amalga oshirilib, 161 ta ish o'rinlari (misol uchun:"Chiqirchi qurilish" MChJ tomonidan plastik va MDFdan oyna hamda eshik, "San'atbek Murodbek" MChJ tomonidan bruschatka ishlab chiqarish);

- mashinasozlikda 8 ta loyihada (52,5 mln.doll) 1038 ta ish o'rinlari; (misol uchun: MChJ shaklidagi "UzDongYang" qo'shma korxonasi tomonidan damas rusumli avtomobillar inter'eri uchun o'rta va mayda hajmdagi detallar, MChJ

shaklidagi “UzTongXong” qo’shma korxonasi tomonidan o’rindiqlik ishlab chiqarish);

- yengil sanoat va boshqa turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo’nalishida 17 ta loyihada (6,2 mln.doll) 488 ta ish o’rinlari; (misol uchun: “Koboteks” MChJ tomonidan trikotaj mato, MChJ shaklidagi “Khorezm tech” qo’shma korxonasi tomonidan paypoq, “O’zinterimpeks” kompaniyasi tomonidan trikotaj mato ishlab chiqarish).

Dasturdagi loyihalarning amalga oshirilishi natijasida viloyatda 20 ta yangi turdagi ya’ni, Damas, Orlando rusumidagi avtomobillar, maishiy gaz balonlari, muzlatgich va maishiy xolodniklar, gidravlik ekskavatorlar, bamperlar, priborlar panellari, avtomobillarga o’rindiqlar, kir yuvish kukuni kabi mahsulotlar ishlab chiqarish yo’liga qo’yilmoqda.

2.2. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda 2013 – 2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturining ahamiyati

Ko’hna Xorazm viloyati Buyuk ipak yo’lining markazida joylashgan bo’lib, O’zbekistonning eng yuqori sayyohlik salohiyatiga ega mintaqalaridai biri hisoblanadi. Jahon xamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq muzey-shahar sifatida e’tirof etilishi hamda YuNESKO Butunjahon merosi ro’yxatiga kiritilishi nafaqat Xorazm viloyati, balki O’zbekistonning jahon turizm bozoriga zalvorli qadamlar bilan kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Xorazm viloyati iqtisodiyotida turizm sohasi muhim o’rin tutadi, Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 0,85 foizi, eksportning 1,3 foizi ushbu soha hissasiga to’g’ri keladi. Bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining 9 foizi, ish o’rinlarining 10 foizi hamda xizmatlar eksportining 30 foizi aynan shu sohada yaratilayotganligini hisobga olsak, viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligi ayon bo’ladi.

Xorazm viloyatining turistik resurslari²⁶


Turistik resurslar	Tarkibi	Geografik tarqalishi
Tabiiy resurslar hamda biologik xilma-xillik	Cho'llarning tabiati, er usti reliefi, flora va faunasi	Butun viloyat hududida
Amudaryo va uning havzasi	Daryo, uning sohilidagi rekreatsiya resurslari, daryo o'zanidagi to'qayzor va o'rmonlar, o'simliklar dunyosi	Bog'ot, Xonqa, Urganch, Hazorasp tumanlari
Arxeologik turizm resurslari	Qadimiy Xorazm poyatxlari qadimiy qal'alar, arxeologik topilmalar	Xiva, Urganch, Shovot, Hazorasp, Qo'shko'pir tumanlari
Tarixiy obidalar bilan bog'liq resurslar	Tarixiy obidalar	Xiva, Urganch shaharlari va Shovot, Bog'ot, Hazorasp, Yangiariq tumanlari
Diniy ziyoratgohlar	Sulton Uvays, Yusuf Hamadoniy, Pahlavon Mahmud, Norimjon bobo ziyoratgohlari va viloyat tumanlaridagi boshqa muqaddas qadamjolar	Xiva, Urganch, Bog'ot, Yangiariq tumanlari
Turizmning mahsus turlari resurslari	Hunarmandchilik, urf-odatlar, milliy san'at va o'yinlar	Butun viloyat hududida

Xorazm hududida 255 dan ortiq madaniy meros yodgorliklari mavjud. Ulardan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi me'morchilik, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas qadamjolardir. Bu noyob turistik yodgorliklar viloyatning tuman va shaharlarida ko'p uchraydi (2.2.1-jadval).

Xorazm viloyatiga tashrif byurayotgan sayyohlar soni yildan-yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Viloyatga har yili o'rtacha ellik mingdan ziyod sayyohlar tashrif byuradi. Ularning tarkibida xorijlik sayyohlarning soni salmoqli o'rinni egallaydi. Quydagi diagrammada 2006-2014 yillarda Xorazm viloyatiga tashrif byurgan xorijiy turistlar soni dinamikasi keltirib o'tilgan. Quydagi diagrammada xorijiy turistlarning soni 2014-yilda 2006-yilga nisbatan qariyb 2,6 marta oshganligini ko'rishimiz mumkin.

²⁶ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 111 b.

(2.2.1-diagramma).



2.2.1-diagramma. 2006-2014 yillarda Xorazm viloyatiga tashrif byurgan xorijiy turistlar soni dinamikasi²⁷

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, Xorazm viloyati turistik ekskursiya resurslarining zichligi hamda ularning tarkibidagi tarixiy-me'moriy ob'ektlar ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimizda 1-o'rinni, ekskursiyalar texnologik zaxirasi bo'yicha 2-o'rinni egallaydi. (2.2.2-jadval).

Shu o'rinda viloyatda turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni alohida tahlil qilish joiz.

Transport infratuzilmasi. Amalga oshirilgan modernizatsiya ishlari natijasida Urganch aeroporti xalqaro aeroport maqomini oldi va bosqichma- bosqich turli qit'a va mamlakatlar bo'ylab aviareyslar georafiyasini kengaytirib bormoqda.

Xorazmni O'zbekistonning boshqa hududlari bilan bog'lashda temiryo'l va avtomobil yo'llari katta ahamiyatga ega. Transport infratuzilmasida ijobiy jihatlar bilan birga bir qator kamchiliklar ham mavjud. Xorazmning poytaxt va boshqa turistik markazlardan uzoqda joylashganligi va hududlararo transport yo'nalishlarining kamligi sayyohlarning Samarqand va Buxoroga tashriflarini Xorazm tomonga davom ettirish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

²⁷ "O'zbekturizm" MK ma'lumotlari


2.2.2-jadval

O'zbekiston turistik markazlarining asosiy ko'rsatkichlari (2013-yil)²⁸

Ko'rsatkichlar	Xorazm	Samarqand	Buxoro	Toshkent sh.
Ekskursiya resurslarining texnologik zaxirasi	7,9	75,4	163,2	-
Ekskursiya resurslarining zichligi	16,9	3,1	1,1	-
Mehmonxonalar soni	33	84	79	90
Tunash davomiyligi, (kishi- kecha)	1,6	2,2	2,0	2,8
Mehmonxonalarning bandlik ko'rsatkichi (%)	19	20	20	44,5
Turoperatorlar soni	3	48	14	234
Mehmonxonada tunagan sayyohlar soni (kishi)	69 720	130 507	107 095	523 110
ulardan dam olish maqsadida kelganlar	57 638	75 176	74 598	186 464
ulardan xizmat safari bo'yicha kelganlar	12 082	43 687	28 739	249 675
Turizm eksporti (ming AQSh doll.)	2 006,3	10 187,2	4 944,7	38 806,9
undan tur. firmalar hisobiga	87,1	4 777,1	317,5	17 164,6
undan mehmonxonalar hisobiga	1 919,1	3 972,3	2 459	19 673,4
undan hamkorlik asosida	-	1 440,8	2 120,1	1 850,4

Mehmonxona xizmati. Viloyatda bugungi kunda 1676 o'ringa ega 33 ta mehmonxona va joylashtirish muassasalari, 222 o'rinli dam olish maskanlari, 3 ta turistik firma faoliyat olib bormoqda. Mehmonxona va joylashtirish muassasalarining tahlili Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasining ushbu tarkibiy qismining rivojlanganlik darajasi O'zbekistonning boshqa turistik markazlaridagiga nisbatan pastroq ekanligini ko'rsatadi (2.2.2-diagramma).

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari



2.2.2-diagramma. Mehmonxona va joylashtirish muassasalarining respublika miqyosidagi ulushi²⁹

Yuqoridagi diagrammada Xorazm viloyatining mehmonxona va joylashtirish muassasalarining respublika miqyosidagi ulushi Toshkent shahri (5,6 marta), Samarqand (2,3 marta) va Buxoro (1,8 marta) viloyatlariga nisbatan ortda qolayotganini ko'rishimiz mumkin.

Xorazmga tashrif buyuruvchi turistlarning viloyatdagi sayohati davomiyligi ham ancha qisqa. Masalan, sayyohlarning Toshkent shahrida tunab qolishi o'rtacha 2,8 kecha, Samarqandda 2,2 kecha va Buxoroda 2 kechani tashkil etsa, bu ko'rsatkich Xorazmda 1,6 kechadir.

Mehmonxonalar faoliyati tahlilidagi yana bir muhim ko'rsatkich ularning bandligi darajasidir. Bu ko'rsatkich bir yil davomida qabul qilingan mehmonlar tunash kechalarining mehmonxonalarning bir yillik sig'imi (kishi-kechalar)ga nisbati asosida aniqlanadi. Uning optimal darajasi 62 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2013-yilda Xorazmda atigi 19 foiz bo'lgan. Bir qarashda bu, mehmonxonalar asosan bo'sh turadi, degan xulosaga olib keladi. Boshqa tomondan esa, xorijlik sayyohlar turistik mavsumda mehmonxonalarda joy etishmasligini ta'kidlashadi.

²⁹ O'zbekturizm" MK ma'lumotlari, 2012-yil

Turizm xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar. Viloyatning sayyohlik salohiyati yuqori bo'lishiga qaramasdan unda faoliyat olib borayotgan sayyohlik tashkilotlari soni juda kam (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

O'zbekistonning sayyohlik markazlarida turistik xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar soni³⁰

Hududlar nomi	Turistik xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar soni	Ulushi (foizda)
Respublika bo'yicha	348	100,0
Toshkent shahri	234	67,2
Samarqand viloyati	48	13,8
Buxoro viloyati	14	4,0
Xorazm viloyati	3	0,9
Boshqa viloyatlar	49	14,1

Bu holat sifatli turistik xizmatlarni taklif eta oladigan mutaxassislar etishmasligi bilan izohlanadi. Natijada, Xorazmga kelgan sayyohlardan tushishi mumkin bo'lgan mablag' boshqa viloyatlarning turistik tashkilotlariga o'tib ketadi.

Turizm rivojida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar, avvalo, respublikamiz turizmining globallashuvi hamda jahon sayyohlik bozorida sodir bo'layotgan kuchli o'sish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga Prezidentimiz rahnamoligida hukumatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi mamlakatimizning turistik salohiyatini yanada oshishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida 2013-yil 20-martda qabul qilingan "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" PQ-1940-sonli qarorini ko'rishimiz mumkin.

2013-yil 20-martda qabul qilingan Prezidentimizning viloyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" PQ-1940-sonli qaroriga

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2013-yil

asosan viloyatning tarixiy-madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish, mehmonxonalar, restoranlar hamda turizm infratuzilmasining boshqa ob'ektlarini yangidan qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Dasturga asosan 2013-2015 yillarda jami 5 ta bo'limda 110198 ming dollar miqdorida (214,3 mlrd. so'mlik) 204 ta loyihani amalga oshirilishi natijasida viloyat iqtisodiyotiga 97,4 mln.dollar miqdorida investitsiyalar, jumladan 11,9 mln. dollar davlat byudjeti va 1,5 mln. dollar mahalliy byudjet mablag'lari, 29,3 mln. dollar bank kreditlari, 12,5 mln. dollar xorijiy investitsiyalar, 4,2 mln. dollar respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari, 2,9 mln. dollar grant va 34,9 mln. dollar tashabbuskorlarning o'z mablag'lari jalb qilinadi.

2.2.4-jadval

2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari³¹

Ko'rsatkichlar	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	O'sish sur'ati 2015 y.- 2012 y. n
Turistik xizmatlar hajmi, (mln.so'm)	4 525,0	7 013,9	12 267,8	22 242,2	4,9 marta
Turistik xizmatlar eksporti, (ming AQSh dollar)	2 357,4	3 405,8	5 435,2	8 989,5	3,8 marta
Turistlar soni, (ming kishi)	73,3	82,6	99,3	127,0	1,7 marta
Xorijiy turistlar soni, (ming kishi)	51,6	58,1	69,8	89,1	1,7 marta
Ichki turistlar soni, (ming kishi)	21,7	24,5	29,5	37,9	1,7 marta
Mehmonxonalar soni	33	39	48	61	1,8 marta
Mehmonxonalardagi joylar soni	1 550,0	1 747,0	2 103,0	2 688,0	1,7 marta

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 20-martda qabul qilingan "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" PQ-1940-sonli qarorining 1-ilovasi

Dasturga muvofiq mehmonxona, restoran va boshqa turizm infratuzilmasi ob'ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha umumiy qiymati 25957,0 ming (tashabbuskorlar mablag'i 11540,0 ming, tijorat banklari krediti 11917,0 ming, xorijiy investitsiyalar 2500,0 ming) AQSh dollariga teng 44 ta loyiha jumladan, 2013-yilda 8 ta, 2014-yilda 27 ta, 2015-yilda 9 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan.

2015-yil ohiriga borib dasturda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy natijalarga erishiladi (2.2.4-jadval).

Shuningdek, 2350 ta ish o'rinlari yaratiladi hamda 27 ta mehmonxonalar yangidan quriladi, 3 ta bino mehmonxonaga mo'ljallanib rekonstruktsiya qilinadi 4 ta mavjud mehmonxonalar rekonstruktsiya qilinadi.

“2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dasturi” doirasida 2014-yil yakuni bilan jami 63000 ming dollar (126 mlrd. so'mlik) 106 ta loyiha rejalashtirilgan bo'lib, shundan 353 ming dollar (70,6 mlrd.so'mlik) mablag'i hisobidan 79 ta loyiha to'liq bajarildi.

Dastur doirasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan:

1. Viloyatning turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 29,6 mln. dollar qiymatdagi 39 ta tarixiy-arxeologik yodgorliklar va madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish va holatini yaxshilash, restoranlarning yangi tarmog'ini tashkil etish maqsadida 8 ta yangi restoronlar qurish, mavjud 4 ta turizm industriyasi ob'ektlarini rekonstruktsiya qilish belgilangan.

Ushbu yuzadan bugungi kungacha 255 ta madaniy meros ob'ektlari ro'yxatdan o'tkazildi. Shundan, 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas joylardir. Viloyatdagi barcha madaniy meros ob'ektlarining yagona reestri shakllantirilib, ob'ektlarning joriy holati aks etgan pasportlari tuzildi.

2. Hududning turistik mahsulotlarining diversifikatsiya qilish, tarkibini kengaytirishda 40,3 mln.dollar miqdorida mablag'lar o'zlashtirish hisobiga tarixiy-ilmiy, madaniy-etnik, ko'ngilochar, tabiat va ziyorat turizm yo'nalishlari

hamda mavjud turistik paketlari takomillashtirilishi, shuningdek turistik hududlarda sayr-tomosha va dam olish maskanlari tashkil etilishi, turli madaniy tadbirlar, jumladan festivallar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar o'tkazilishi belgilangan.

Bu borada Xiva tumanidagi "Bibi Xojar" maqbarasida ziyoratchilar uchun sharoit yaratish maqsadida kompleksni obodonlashtirish, savdo va ovqatlanish punktlari yaratish loyihasi (100 ming dollar loyiha tashabbuskori mablag'idan) doirasida Xiva Obodonlashtirish boshqarmasi tashabbuskorligi asosida maqbara atroflarida obodonlashtirish ishlari tugallandi.

Madaniy meros ob'ektlari hududida sayyohlarga namoyish qilish uchun qo'l mehnati Xiva gilamlari tayyorlash bo'yicha kasanachilik ustaxonalarini tashkil qilish loyihasi (70 ming dollar loyiha tashabbuskori mablag'idan) doirasida "Ichan Qal'a" hududidagi "Yoqubboy xo'ja" madrasasida qo'lda gilam to'qish ustaxonasi tashkil etildi. Shuningdek sayyohlik yo'nalishi bo'ylab 5 ta xonadonda qo'lda gilam to'qish uchun jihozlar o'rnatilib, ushbu uylarda ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

3. Turistlar oqimini keng jalb qilish bo'yicha tadbirlarni faollashtirishda 637,5 ming dollar miqdorida mablag'lar jalb qilish hisobiga viloyatning turistik qiyofasi brendini yaratish, viloyat turistik kompaniyalarini har yil o'tkaziladigan xalqaro yirik ko'rgazmalarda ishtirok etishini ta'minlash, shuningdek "Turistik axborot ofislari" hamda xorijiy kompaniyalar va axborot vositalari vakillariga infoturlar tashkil etish, videofilmlar yaratish, viloyatning turistik xaritasini ishlab chiqish tadbirlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Viloyatning turistik salohiyatini namoyish qilish maqsadida Milliy madaniyat, an'analar, musiqa, milliy liboslar va o'ziga xos oshxonasini aks ettirgan videofilm yaratish va "Visit Uzbekistan" sayti portalini yaratish loyihalari doirasida (25 ming dollar bajaruvchi mablag'i hisobidan) yaratilgan "Visit Uzbekistan" portalida Xorazm viloyati turistik imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi.

Hududning turistik potentsialini namoyish qilish va sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida, "Urganch" aeroporti, "Urganch" avtovokzali va "Urganch" vokzalida "Turistik ma'lumot offislari"ni tashkil qilish loyihasi doirasida (240 ming dollar bajaruvchi mablag'i hisobidan) bugungi kunda "Ichan Qal'a" va "Urganch" xalqaro aeroportida sayyohlik axborot offislari tashkil etildi.

4. Turizm infratuzilmasiga hamroh ob'ektlar (infratuzilma) holatini yaxshilash maqsadida 15,4 mln. dollar mablag'lar hisobiga viloyatning turistik salohiyati va ularga xizmat ko'rsatuvchi kommunikatsiya imkoniyatlarini yaxshilash, shu jumladan Xorazm viloyatining turizm bo'yicha veb-saytini yaratish, mehmonxonalarni bron qilishning onlayn tizimini joriy qilish injenerlik va kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shuningdek 84,5 km avtomobil yo'llarini ta'mirlash va 3,5 km elektr havo liniyalari yangidan qurish ko'zda tutilgan.

"Visitkhorezm.uz" turistik sayti loyihasi diorasida (umumiy 240 ming dollar xomiyalar va bajaruvchilar mablag'idan) saytning dizayni va strukturasi takomillashtirish, shuningdek kelajakda "Google earth" saytiga foto suratlarini 3D ko'rinishda joylashtirish maqsadida turistik ob'ektlarning ro'yxati tayyorlanib, "VisitKhorezm" veb portalini internet portalida joylashtirish kontseptsiyasi tasdiqlandi va shu asosda veb sayt ishlab chiqildi.

Aeroport, temir yo'l vokzali, mehmonxonalar va boshqa shunga o'xshash joylarda hamda umumiy ovqatlanish shoxobchalarida valyuta terminallarini o'rnatish loyihasi doirasida bugungi kunda 20 ta turistik ob'ektlarga, 2 ta ovqatlanish shoxobchalariga hamda 14 ta boshqa qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes tarmoqlariga valyuta terminallari o'rnatilgan.

5. Turizm sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida Ispaniya va Yaponiya davlatlari universitetlari hamda Shveysariya va Avstraliya turizm maktablari mutaxassislarni hamkorlikka jalb qilgan holda jahon talablariga muvofiq turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash, shuningdek Urganch turizm va tadbirkorlik hamda Xiva hunarmandchilik kasb-hunar kollejlari turizm yo'nalishlarida ta'lim sifatini oshirish belgilangan.

Turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash maqsadida “Turizm marketingi”, “Turizm menejmenti”, “Ekskurtsion xizmatlarni yo’lga qo’yish”, “Turoperatorlik xizmatlarini yo’lga qo’yish”, “Tadbirlar tashkil qilish” va boshqa yangi fanlarni kiritish hamda o’quv metodikasini yanada takomillashtirish loyihasi doirasida (17 ming dollar bajaruvchi mablag’idan) Oliy ta’lim vazirligi, O’MKX markazi tomonidan “O’zbekturizm” MK bilan hamkorlikda “Turistik xo’jalik tashkilotchisi” mutaxassisliklari bo’yicha o’quv me’yoriy hujjatlar tahlil qilingan va ko’rib chiqilib, “Turizm marketingi”, “Turizm menejmenti”, “Ekskurtsiya xizmatlarini tashkil qilish” o’quv dasturlariga o’zgartirishlar kiritildi va yangilandi.

Respublika oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Urganch Davlat universitetida turizm sohasida “WTO - Tedqual (Tourism educational quaification)” ta’lim sifatini sertifikatlash tizimini joriy qilish bo’yicha takliflar tayyorlandi. Bu borada Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining “Xalqaro turizm” fakulteti bilan hamkorlik qilinmoqda.

Hozirgi kunda ham bu boradagi keng ko’lamli ishlar viloyatning tuman va shaharlarida izchil amalga oshirilmoqda.

Mana shu singari davlat dasturlarining qabul qilinishi mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanshida muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

2.3. Mintaqaning aholi turmush farovonligini oshirish uchun qaratilgan davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlili

2012-yil 6-dekabrda qabul qilingan Muhtaram Prezidentimizning viloyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi “2013-2017 yillarda Urganch shahrini qayta qurish va Xorazm viloyati aholisini ichimlik suvi ta’minotini tubdan yaxshilash Dasturi to’g’risida”gi PQ-1874-sonli qarori asosida 2013-2020 yillarda Urganch shahrining bosh rejasini amalga oshirish, obodonlashtirish ishlarini va Xorazm viloyati aholisini ichimlik suvi ta’minotini tubdan yaxshilash ishlariga jami 1579 mlrd. so‘mlik mablag‘lar o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan. Bugungi kungacha Dasturda belgilangan loyihalarning 1121.4 mlrd. so‘mliqi amalga oshirildi. Jumladan:

2013-2014 yillarda 609.0 mlrd. soʻmlik qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish belgilangan boʻlsa, bu koʻrsatkich 849.3 mlrd. soʻmlik (139,4%) yetib bajarildi. 2015-yilga rejalashtirilgan 340,0 mlrd. soʻmlik hajm 1-oktabr xolatiga 272.1 mlrd. soʻmlik (80%) qurilish ishlari bajarildi.

Obyektlar kesimida olib qaralganda

1. “Urganch” xalqaro aeroportida 61.5 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, “300 oʻrinli uchib kelish” va “300 oʻrinli uchish ketish” zallari foydalanishga topshirildi.

2. Toshkent axborot-texnologiyasi universiteti (TATU) Urganch filiali 2013-2014 yillarda yangi binosi qurilishida 19,4 mlrd. soʻmlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirilib, 300 mln. soʻmdan ortiq zamonaviy jihozlar bilan taʼminlandi. Shuningdek, talabalar uchun yangidan yotoqxona qurib bitkazildi.

3. “Olimpiya zahiralari” kollejida 2014-2015 yillarda 160 oʻrinli yotoqxona, 2 ta sportzal va 300 oʻrinli oshxona yangidan qurildi. Oʻquv bloklari, mavjud oshxona va 2 ta 250 oʻrinli yotoqxona kapital taʼmirlandi, shuningdek laboratoriya va diagnostika binosining fasadini taʼmirlash, magistral isitish tizimi quvurlarini taʼmirlandi. Tashqi yoritgichlarni oʻrnatish, maysa ekiladigan maydonga sugʻorish tizimini oʻtkazish, asfalt yotqizish ishlari, jami 11.7 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarildi.

4. Urganch davlat universitetida 2015 yilda 506 oʻrinli oshxona binosini yangidan qurildi, 4 ta 1058 oʻrinli mavjud yotoqxona binosi kapital tamirlandi, universitet xududining ichki yoʻl va yoʻlaklarga asfalt yotqizildi, tashqi yoritgichlar va sugʻorish tizimi toʻliq oʻrnatildi. Ushbu ishlarga jami 5.4 mlrd soʻmdan ziyod mablagʻ sarflandi.

5. Urganch tibbiyot kollejida 2015 yilda 200 oʻrinli yotoqxona kapital taʼmirlanib 1 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarildi.

6. 2-son akademik litseyda bu yil 100 oʻrinli oshxona va 200 oʻrinli yotoqxona kapital taʼmirlandi. Litsey xududidagi yoʻlaklarga asfalt yotqizish ishlari, tashqi yoritgichlar va sugʻorish tizimi toʻliq oʻrnatildi. Manzarali daraxtlar ekildi. Jami 1.6 mlrd. soʻmdan ortiq qurilish montaj ishlari bajarildi.

7. Markaziy stadiona 2014 yilda rekonstruktsiya ishlari boshlanib, tribuna, kirish qismini tartibga solishga alohida e'tibor qaratildi. 1000 dan ziyod manzarali daraxtlar va maysalar ekildi. 28.6 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarildi.

8. "Yoshlik" massividagi obyektlardan Sport majmuasidagi yopiq manej majmuasi, gimnastika zali, 2 ta sportzal, basseyn qurilishi va obodonlashtirish ishlariga 55 mlrd.so'm sarflandi.

Hududdagi 190 o'rinli bolalar bog'chasi 2,4 mlrd. so'm saflanib rekonstruktsiya qilindi. Bugungi kunda obyekt foydalanishda. 9.7 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, "Turizm va mehmonxona xizmati" kasb-xunar kolleji foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, 3.3 mlrd. so'm sarflanib qurilgan 315 o'quvchi o'rinli maktab bugun ishlab turibdi. 2-son bolalar musiqa san'at maktabini qurishga 2,6 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, obyekt foydalanishga topshirildi.

Tasdiqlangan loyiha bo'yicha 101 ta 2 qavatli kottedj tipidagi uylar qurildi.

9. "Jayxun" mehmonxonasi ob'ektini rekonstruktsiya qilinib Tibbiyot akademiyasiga aylantirish ishlari nihoyasiga yetmoqda. Bu yerda 2015 yilning 1 oktabr holatiga 41.6 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarildi.

10. "Tinchlik" ko'chasida yangi "Baxt uyi"da 3,6 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Shuningdek, loyiha asosida maydon atrofidagi Ipotekabank binosi qayta ta'mirlanib, musiqali fontan va muzqaymoq paviloni yangidan qurildi.

11. "Yoshlar ko'li" obyektida 12 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, foydalanishga topshirishildi.

12. Amir Temur parki rekonstruktsiyasining umumiy qiymati 19.7 mlrd. so'm bo'lib, bugungi kungacha 4.0 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarildi. Bugungi kunda kommunikatsiya tizimlarini montaj qilish ishlari yakunlanib foydalanishga topshirildi.

13. Ko'p qavatli uylar qurilishi.

Bugungi kunda 10-sonli maxalla xududida 11 ta va Yoshlik massivida 8 ta ko'p qavatli uylarda qurilish ishlari boshlanib, 61.7 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarildi. Qolgan 4 ta ko'p qavatli uylarni o'rnidagi eski binolarni buzilib olish va o'rnini tozalash ishlari olib borilmoqda.

14. Sheroziy ko'chasidagi eski uylar buzilib, o'rnida 12 ta yangi zamonaviy 2 qavatli turar joylar qurildi.

15. Urganch shahridagi 2013-2014 yillarda 15 ta mahallani namunaviy mahallaga aylantirildi, namunaviy mahallalarda ichki yo'llar, yo'laklarga asfalt yotqizish, yo'laklar chetiga bordyurlar o'rnatish hamda barcha kommunikatsiyalarni tartibga keltirish ishlari bajarildi.

Mahallalarda obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 21 ta maxsus texnikalar sotib olindi.

Shuningdek, 7 ta maxallada yangidan zamonaviy namunaviy maxalla guzarlari qurildi. 2013-2014 yillarda "O'ztransgaz" kompaniyasining mablag'lari hisobidan 63 ta obyektga 30,4 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarildi.

16. Suv ta'minoti bo'yicha. Dasturga asosan suv ta'minoti bo'yicha 2013-2014 yillarda 120 ta obyektga 42 mlrd. so'mlik mablag' o'zlashtirildi.

2015 yilda esa respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 25.6 mlrd. so'mlik ish bajarilishi rejalashtirilgan bo'lib 1 oktabr holatiga 21.2 mlrd. so'm (82.8%) ishlar bajarildi.

17. Elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha. Dasturga asosan 2013-2014 yillarda elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha 481 ta obyektga 30.8 mlrd. so'mlik qurilish – montaj ishlari bajarildi.

Dasturga asosan 2015 yilda "O'zbekenergo" kompaniyasining 20 mlrd. so'm mablag'i hisobiga elektr ta'minotini yaxshilash rejalashtirilib, 1 oktabr holatiga 13.1 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Dasturga asosan yo'l qurilishi bo'yicha 2013-2014 yillarda 101.3 mlrd. So'mga 126 ta yangi yo'l qurilishida ishlatiladigan texnika-vositalari sotib olindi.

18. Yo'l qurilishi bo'yicha. 2015 yilning 1 oktabr xolatiga 27.7 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, shundan Urganch shahrining ko'chalari yo'llarni qurish va rekonstruktsiya qilish ishlariga 21.9 mlrd. so'm sarflandi.

19. Shovot kanalining shahar ichidan o'tuvchi 7,3 km qismining ikki qirg'og'ida betonlashtirildi. Kanalning o'zanida doimiy akvatoriya hosil qilish maqsadida, suv sathini 3 metr chuqurlikda bo'lishini ta'minlovchi suv inshooti qurildi. (332 piket). Kanaldan sizib chiquvchi filtratsiya suvlarini tutib qoluvchi 7,3 km uzunlikdagi yopiq-yotiq drenaj (ZGD) tizimi qurildi.

Urganch shahrining meliorativ holatini yaxshilash uchun "G'azovot-Davdon" kollektorlar tizimi, "Divanko'l" magistral kollektori hamda "Chakkako'l" kollektori rekonstruktsiya va ta'mirlash-tiklash ishlari bajarildi. Shahar hududidagi mavjud 47 ta tik drenaj quduqlari ishchi holatga keltirildi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida Urganch shahri va Shovot kanali atrofida yer osti suvlari sathini 1-1,5 metrgacha pasayishiga erishildi. Shahar hududidagi yer osti suvlari tizimini monitoring qilish uchun 81 ta kuzatuv quduqlari qurilishi yakunlandi.


Kanalning ikki qirg'og'ida viloyatlar tomonidan 48 mlrd. so'mdan ziyod mablag' o'zlashtirilib, 55 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari qurib foydalanishga topshirildi.

Tabiiy sharoitiga ko'ra Xorazm viloyati suv resurslari iste'moli bo'yicha mamlakatimizda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Viloyatda 2000-2013 yillarda bir gektar sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri keladigan suv sarfi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan 1,4 marotaba yuqori bo'lib, u Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro viloyatidan keyingi o'rinda turadi (2.3.1-diagramma)

Bu asosan, sho'r yuvish ishlarida suv sarfi (umumiy suv sarfining 25%i) ortib borayotganligi hamda sug'orish tizimlarini (suvni ko'tarib beruvchi nasoslar) elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi uzilishlar natijasida suv resurslarini ortiqcha sarflash bilan bog'liqdir. Viloyat Amudaryoning quyi oqimida joylashganligi sababli suv ta'minoti ko'p jihatdan yog'ingarchilik darajasiga bog'liq bo'lib, uning o'zgarish koeffitsienti o'rtacha 40 foizdan ortadi.

2012-2013 yillarda Xorazm viloyatida o'rtacha 4 mlrd metr kubdan ortiqroq suv iste'mol qilingan bo'lib, bu talabning 80 foiziga tengdir. Shuning uchun ham viloyatda suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm viloyati respublikadagi yog'in eng kam yog'adigan hududlardan biri bo'lib, dehqonchilik faqat sug'orma usulda amalga oshiriladi. Keyingi yillarda o'rtacha yog'ingarchilik darajasiga nisbatan bug'lanish 18-19 barobar yuqori bo'lmoqda.



2.3.1-diagramma. Respublikada 2000-2013 yillarga bir gektar sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri keladigan suv hajmi³²

Xorazm viloyati respublikadagi yog'in eng kam yog'adigan hududlardan biri bo'lib, dehqonchilik faqat sug'orma usulda amalga oshiriladi. Keyingi yillarda o'rtacha yog'ingarchilik darajasiga nisbatan bug'lanish 18-19 barobar yuqori bo'lmoqda.


Viloyatda foydalanilayotgan suv iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tahlil qilinganda, uning 97 foizi qishloq xo'jaligi, 2 foizi kommunal xo'jalik va 1 foizi boshqa maqsadlarga sarf qilinayotgani ravshan bo'ladi.

Sizot suvlar sathi eng yuqori bo'lgan (1 metrgacha) ekin maydonlari viloyatda 100 ming gektardan ortiqni tashkil etadi. Bu umumiy ekin maydonlarining 38,2

³² Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 49 b.

foiziga tengdir. Amalga oshirib kelinayotgan melioratsiya tadbirlari natijasida bunday yer maydonlari ulushi 2007-yilga nisbatan 10 foizga yaqin qisqargan bo'lsada, respublikada eng yuqoriligicha qolmoqda (2.3.2-diagramma).

Viloyat bo'yicha jami 10,6 ming kilometr uzunlikda kollektor-zovur tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning 65 foizini tumanlararo zovurlar tashkil etadi. Sizot suvlari 5 ta asosiy kollektorlar – Ozerniy, Divdanko'l, Davdon, Shovot-Andrey va Qangli orqali chiqarib yuboriladi. Ozerniy kollektori viloyat drenaj tizimining o'ziga xos "arteriyasi" hisoblanadi. Ozerniy kollektori orqali 60 foizga yaqini, Divdanko'l kollektori 30 foiz, Davdon kollektori 7 foiz, Shovot-Andrey kollektori 3 foiz va Qangli kollektori orqali esa 1 foiz viloyat sizot suvlarining chiqib ketishi ko'zda tutilgan.



2.3.2-diagramma. Respublikadagi sizot suvlari sathi 1-1,5 metgacha bo'lgan sug'oriladigan yerlar ulushi³³

Mamlakatimizda qabul qilingan melioratsiya dasturi doirasida viloyatda 2008-2013 yillarda jami 7,9 ming km uzunlikda kollektor zovur tarmoqlarida rekonstruktsiya va ta'mirlash ishlari bajarilib, 202 ming gektar maydonda yer osti suvlari pasayishiga erishildi. Natijada, kuchli sho'rlangan maydonlar 2007-yilda 28,9 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilda 21,8 ming gektarni tashkil

³³ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 49 b.

etib, 7,1 ming gektarga kamaytirildi.

Bugun ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish, eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini bermoqda.

Eng muhimi, viloyat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin yaratdi. Xususan, g'alla etishtirish 2000-yilga nisbatan 1,4 barobar, kartoshka – 5,0 marta, sabzavot – 5,3 barobar, uzum – 3,0 marta, go'sht - 2,2 marta, sut – 2 marta va tuxum – 2,9 barobar oshdi. Shuningdek viloyatda er ball boniteti 0,4 punktga yaxshilandi.


Viloyat irrigatsiya tizimi 2,4 ming kilometr uzunlikdagi xo'jaliklararo hamda 14,0 ming kilometr uzunlikdagi ichki xo'jalik kanallaridan iborat. Viloyatda suvdan foydalanish samaradorligi qoniqarsiz holatda bo'lib, uni quyidagi omillar bilan izoxlash mumkin:

1. Suv iste'molchilari uyushmalari (SIU) fermerlarning tashkiloti hisoblansada, ko'pchilik fermerlar, ularni davlat suv xo'jaligi tashkiloti, deb hisoblashi, fermerlarning uyushma faoliyatida o'z o'rni va vazifalarini yaxshi bilmasligi uyushma faoliyatini samarali tashkil etishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari kundalik ishlarni samarali tashkil etish uchun SIUlarda texnika vositalari va malakali mutaxassislar etishmaydi.

2. Irrigatsiya tizimlari holati qoniqarsiz ahvolda bo'lib, bu suv resurslari tabiiy yo'qotilishining ortishi va sizot suvlari sathining ko'tarilishi natijasida erlarning qayta sho'rlanishiga sabab bo'lmoqda. Viloyatdagi kanallar asosan tuproq o'zanlidir. Suv sathi har yil turlicha bo'lganligi sababli ularning qirg'oqlari o'pirilishi natijasida eni loyihadagiga nisbatan ikki barobardan ortiqqa kengayib, o'zani sayozlashgan. Bu esa kanallarning gidravlik parametrlari o'zgarishi va suv o'tkazish qobiliyatining yomonlashishiga sabab bo'lmoqda. Sug'orish tarmoqlarining devori tuproqligi, enining kengayganligi, ba'zi joylarning qumloqligi sababli 30 foizdan 50 foizgacha suv tabiiy ravishda yo'qotilmoqda. Uning bir qismi tuproqqa so'rilishi esa sizot suvlari sathining ko'tarilishi va

erlarning qayta sho'rlanishiga olib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, sug'oriladigan ekin maydonlarining qisqarishiga sabab bo'layotir.

3. An'anaviy ekin turlarini etishtirish bo'yicha viloyatda sarflanayotgan suv miqdori respublikada eng yuqori darajadagicha qolayotir. Bu ekin turlarini joylashtirishda xar bir tumanning tuproq va suv sharoitini e'tiborga olinmasligi hamda suvdan samarali foydalanishga qaratilgan agrotexnologiyalarning joriy etilmasligi bilan bog'liqdir. Viloyatda 1 gektar paxta maydoniga sarflanayotgan suv miqdori o'rtacha respublika ko'rsatkichidan 1,5 barobar yuqoriligi buning tasdig'idir (2.3.3-diagramma).



2.3.3-diagramma³⁴. Respublikada 1 ga paxta maydonini sug'orish uchun sarflanayotgan suv sarfi, ming metr³

Shu holatlarni e'tiborga olgan holda hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jalik yerlarini melioratsiyalash ishlariga katta ahamiyat berilib, yildan-yilga yetarli miqdorda mablag', qurilish materiallari ajratish, zamonaviy yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish kabi ko'pgina g'amxo'rliklar ko'rsatib kelinmoqda. Buning yorqin na'munasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish

³⁴ Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014.- 49 b.

Dasturi to'g'risida" gi qaroriga asosan respublikamizda katta hajmda meliorativ ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-aprelda qabul qilingan "2013–2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1958-sonli qaroriga ko'ra, yangi suv inshootlari barpo etilishi va ulkan meliorativ qurilishi ishlari amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlari asosan sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlardan olinadi. Bu respublika bo'yicha 4,0 mln. ga. dan oshiq yerni sug'orish demakdir. Albatta shuncha erga bizning issiq iqlim sharoitimizda etarlicha suvni o'z vaqtida etkazib berish ancha-muncha qurilish va meliorativ ishlarni bajarishni taqozo etadi. Jumladan bularga yangi kanallar qazish, yuzalariga qoplamalar qoplash, ularni har xil cho'kindi va o'simliklardan tozalab turish, eskilarini ta'mirlash, ochiq zovurlar qazish, mavjudlarini tozalash, yopiq drenajlar qurish, eskilarini ta'mirlash, erlarni sug'orishga tayyorlash ishlarini bajarish, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish va boshqa ko'pgina tadbirlar kiradi. Ushbu meliorativ ishlar millionlab kubmetrlab tuproq, ming-minglab kubmetrlab beton ishlarini bajarish bilan bog'liqdir. Sanab o'tilgan ishlarni faqatgina qudratli qurilish-meliorativ mashinalari yordamida, ilg'or texnologiyalarni qo'llab va keng avtomatlashtirish yo'lidan borib amalga oshirish mumkin.

Dastur dorasida viloyatimizda jami 336,873.km uzunligidagi "Yuqori-Durman (Urganch)", "Bo'zqala (Yangibozor)", "Sandikli (Hazorasp)", "Uchtepa (Yangiariq)", "G'azovot (Xonqa)", "Jirmizko'l (Xonqa)", "Akko'l (Bog'ot)", "Axtamobod (Bog'ot)" va "Shovotqal'a (Shovot)" kollektorlarida tizimli ta'mirlash va tiklash ishlari bajarildi. Bu ishlarga jami 4049,478 mln.so'm mablag' hamda 8 ta ekskavator va 4 ta buldozer jalb qilindi. Bu ishlarning natijasi sifatida viloyatimizda 2015 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 2516971,2 mln. so'mni va 2014 yilning shu davriga nisbatan 105,9 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chikarish hajmi 1247411,3 mln. so'mni (2014 yil yanvar-dekabriga nisbatan (105,6 foiz), chorvachilik mahsulotlari 1269559,9 mln. so'mni (106,2 foiz) tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49,6 foizni, chorvachilik mahsulotlari 50,4 foizni tashkil qildi.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida quyidagi xulosalarni shakllantirdik, jumladan:

1. Respublikamiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan buyon o'tgan qariyb yigirma uch yil mobaynida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini modernizatsiyalash, o'tkazilayotgan demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalarni yanada erkinlashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini chuqur tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya qilish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini va mintaqalarini barqaror hamda mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

2. Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyati tomonidan "O'zbek modeli" deb tan olingan va bevosita mamlakatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar yo'li o'zining naqadar odilona va puxta o'ylab ishlab chiqilganligini istiqloq yillarida, ayniqsa 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida yaqqol namoyon qildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y berayotgan 2008-2015 yillarda ham O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,0 foizdan kam bo'lmagan darajani tashkil etdi. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o'zgarishlarini ham alohida ta'kidlash joiz.

3. 2015-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash maqsadida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari ekanligi mamlakatimizdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hukm surayotganligidan va O'zbekistonga nisbatan dunyo sarmoyadorlarining ishonchi tobora ortib borayotganligidan yaqqol darak beradi.

Mamlakatimizda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror va mutanosib rivojlanishi uchun ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2015-yilda Investisiya dasturi doirasida moliyalashning barcha manbalari hisobidan umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirildi. Masalan Samarqand – Qarshi temir yo'l uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» elektr poyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi;

Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi;

Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrolet Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» zavodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi;

Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyó majmuasi umumiy qiymati 4 milliard dollar bo'lgan dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonaga yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradigan investitsion loyihlarni alohida ta'kidlash joiz.

4. Shuningdek, keyingi yillarda bevosita Xorazm viloyati bo'yicha qabul qilingan “2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish”, “2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi, “Xorazm viloyatida Toshsoqa tizimi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi kabi Qarorlarning roli benihoya katta hisoblanadi.

Yuqoridagi qarorlarga asosan, 2013-2015 yillarda qiymati 462 mln. AQSh dollari miqdoridagi 253 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan hamda KBXTni qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan 120 mln. AQSh

dollarlik 213 ta loyiha amalga oshiriladi. Shuningdek, yuqoridagi loyihalar amalga oshirilishi natijasida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda 2012 yilga nisbatan 2,1 barobar, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,7 barobar, qurilish materiallari 4,4 barobar, mashinasozlik va kimyo sanoati sohasida 7,3 barobar, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish esa 2,6 barobar o'sadi.

Xorazm viloyatida yuqoridagi dasturlar negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mavjudlarini modernizasiya qilish hamda ishlamasdan turgan va kam quvvatli korxonalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish hisobiga engil sanoat tarmog'ida 34 ta, charm-poyabzal sanoatida 9 ta, farmasevtikada 12 ta, qurilish materiallari ishlab chiqarishda 57 ta, elektr tovarlari tayyorlash sohasida 6 ta, mashinasozlik tarmog'ida 16 ta va boshqa turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan 11 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, buning natijasida 45 ta yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Viloyat iqtisodiy rivojida katta voqea bo'ladigan yana bir muhim loyiha "Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi"da yiliga 40000 dona "Damas" rusumli avtomobil ishlab chiqarilishi bo'lib, 2015-yil yanvar-dekabr oylarida 27 062 dona "Damas DLX" markali, 1499 dona "ORLANDO" markali avtomobillar ishlab chiqarildi. Bu esa, viloyatimizni respublikamizning mashinasozlik tarmog'ida yetakchi o'rinni egallagan viloyatlari qatoriga qo'shilishiga imkon yaratadi.

Chiqarilgan xulosalarga tayangan holda, mintaqani baraqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat dasturlarining rolini oshirishga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Viloyatning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda ishlab chiqarishning o'sish nuqtalarini shakllantirish ishlab chiqarish bazasi shakllangan va nisbatan rivojlangan, ma'lum darajada yuqori texnologiyalarga ega, ta'lim va kadrlar salohiyati va resurs imkoniyatlari kengroq bo'lgan hududlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

2. Mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash tashkil qilish orqali yakuniy iste'mol qiymatiga ega bo'lgan mahsulot turlarini kengaytirish va shu

asosda mahalliy sanoatni diversifikatsiya qilish imkoni tug'iladi;

3. Sanoati past darajada rivojlangan tumanlarning xomashyo resurslari, ishlab chiqarish, mehnat salohiyati va boshqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiy jihatdan nisbatan yaxshi rivojlangan tumanlar bilan hududlararo loyihalar asosida bog'lash mavjud tumanlararo tafovutni qisqartirish imkonini beradi.

4. Mehmonxona va boshqa joylashtirish muassalarida sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish, o'rta daromadli turistlar toifasiga mos keladigan mehmonxonalar, uylar va shahardan tashqaridagi kempinglar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va me'yoriy-huquqiy xujjatlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2005 yil 11 aprelidagi Farmoni.// Xalq so'zi. 2005-yil 12 aprel.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoni.// Xalq so'zi. 2005-yil 21-iyun.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'yektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-sonli Farmoni.// Xalq so'zi. 2005-yil 11-iyun.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-100-sonli Qarori.// Xalq so'zi. 2005-yil 16-iyun.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1856-sonli Qarori (2012-yil 22-noyabr).

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" PQ-1940-sonli Qarori (2013-yil 20-mart)

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2017 yillarda Urganch shahrini qayta qurish va Xorazm viloyati aholisini ichimlik suvi ta'minotini tubdan yaxshilash Dasturi to'g'risida"gi PQ-1874-sonli Qarori (2012-yil 6-dekabr)

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013–2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1958-sonli Qarori (2013-yil 19-aprel)

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: "O'zbekiston", 1996. - 364 b.

2.2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -Toshkent: "O'zbekiston", -2000. - 352 b.

2.3. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik. - Toshkent: "O'zbekiston", 2005 y.

2.4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh, etishdir. - Toshkent: "O'zbekiston", 2005. - 96 b.

2.5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim.// Xalq so'zi. - Toshkent, 2006. - 11 fevral.

2.6. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir.// Xalq, so'zi. - Toshkent, 2007-yil 13-fevral.

2.7. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarning bosh maqsadidir.// Xalq so'zi. - Toshkent, 2008-yil 9-fevral.

2.8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: "O'zbekiston",2009.-56 b.

2.9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: "O'zbekiston", 2010. -80 b.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenta Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2009. - 120 b.

2.11. I.A.Karimov "Mustaqillikka erishish ostonasida". – T.: O'zbekiston, 2011.

2.12. I.A.Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". – T.: O'zbekiston, 2015.

2.13. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”// Xalq so`zi, 2016-yil 16-yanvar, 3-bet.

III. Kitob va turkum nashrlari

3.1. Juraev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari. - Toshkent: “Fan”, 2004. - 243 b.

3.2. B.B.Berkinov, D.S.Ashurova, M.K.Abdullaeva “Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash”. . – T.: TDIU, 2010–120

3.3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Xaydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O`quv qo`llanma. –T.: TDIU, 2006. –249 b.

3.4. Bekmurodov A.Sh., G`afurov U.V. O`zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo`nalishlar.O`quv qo`llanma. T.:TDIU, 2007. –102 b.

3.5. A.E. Ishmuhamedov., M.T. Askarova O`zbekiston milliy iqtisodiyoti. O`quv qo`llanma. –T.; TDIU, 2004.

3.6. A.S. Juraev., B.S. Xo`jamqulov, B.S. Mamatov Investisiya loyihalari tahlili.–T.: SHarq, 2003.

3.7. G.G. Nazarova Jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv: tajriba va amaliyot.–Monografiya. – T.: TDIU, 2005.

3.8. Xorazm viloyatini ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi/ Toshkent: IFMR, 2014

3.9. Коломийченко, О.В. Стратегическое планирование развития регионов России: методология и организация [Текст] / О.В. Коломийченко, В.Е. Рохчин. – СПб.: Наука, 2003. – 235 с.

3.10.Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 256 с.

3.11.Решина А.Г. Бюджет и бюджетная деятельность в Латвийской Республике. - Рига, 2002. - 284 с.

3.10. Блехцин, И.Я. Стратегия устойчивого развития региональных систем [Текст]: препринт / И.Я. Блехцин. – СПб.: ИРЭ РАН, 2001. – 13 с.
Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной -М.: ЮНИТИ, 2003. - 350 с.

3.11. Ильин, В.А. Научно-технический потенциал региона: проект долгосрочной программы развития [Текст] / В.А. Ильин, К.А. Задумкин, И.А. Кондаков. –Вологда: ВНКЦ ЦЭМИ РАН, 2009. – 168 с.

IV. Internet saytlari

4.1. <http://www.press-service.uz>

4.2. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

4.3. [http:// www.cer.uz](http://www.cer.uz)

4.4. [http:// www.mf.uz](http://www.mf.uz)

4.5. [http:// www.rewiev.uz](http://www.rewiev.uz)

4.6. [http:// www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

4.7. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)

4.8. [http:// www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)

4.9. [http:// www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)

4.10. [http:// xorazm.uz](http://xorazm.uz)